- *Milliy tilni modaga aylantirish:* Milliy tilni moda va kreativ sohalarda qo'llash, yangi so'zlar va ifodalarni yaratish orqali ona tilining ahamiyatini oshirish.

- Ijtimoiy tarmoqlarda milliy tilni qo'llash: Yoshlar o'rtasida milliy tilni ijtimoiy tarmoqlarda ishlatishni rag'batlantirish, tilni zamonaviy va qiziqarli shaklda targ'ib qilish.

*Milliy Tillarni Rivojlantirishdagi Siyosiy Ta'sirlari.* Ba'zi mamlakatlarda milliy tilni rivojlantirish siyosiy nuqtai nazardan cheklangan yoki rasmiy tilni o'zgartirishga qaratilgan siyosatlar mavjud. Bu, ayniqsa, ko'p tilli jamiyatlarda bir necha til o'rtasidagi muvozanatni saqlashda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Milliy tilning hukumat va qonunchilik tizimida yetarlicha qo'llab-quvvatlanmasligi, tilning ommaviy so'zlashuv va rasmiy hujjatlarda ishlatilmasligiga olib keladi.

- Siyosiy iroda va davlatning roli: Hukumat milliy tilni rivojlantirish uchun aniq siyosat va dasturlarni ishlab chiqishi, tilni ta'lim, qonunchilik va davlat boshqaruvida mustahkamlashi kerak.
- Milliy tilning rasmiy maqomini saqlash: Milliy tilni davlat organlarida, maktablarda, universitetlarda va boshqa muhim sohalarda rasmiy til sifatida saqlash.
- Tilni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar: Milliy tilni himoya qilish va rivojlantirish uchun maxsus qonunlar va dasturlarni ishlab chiqish.

*Milliy Til va Madaniyatni Saqlashdagi Madaniy Ta'sirlar.* Globalizatsiya jarayonida boshqa madaniyatlar va tillarning ta'siri kuchaygan sari, milliy til va madaniyatni saqlash masalasi ham qiyinlashadi. Madaniy asimilyatsiya yoki boshqa tillarning milliy tilni "yutib" ketishi xavfi mavjud.

- Milliy madaniyat va tilni targ'ib qilish: Madaniy merosni va tilni ommalashtirish uchun madaniy tadbirlar, festival va ko'rgazmalar o'tkazish.
- Milliy tilni san'atda va madaniyatda ishlatish: Filmlar, musiqa, adabiyotlar va boshqa san'at shakllarida milliy tilni keng ishlatish va undan foydalanish.
- Madaniy merosni saqlash: Tilni saqlashda madaniy merosni ham yodda tutish va madaniy ahamiyatga ega joylarni, odatlarni va an'analarga asoslangan dasturlarni ishlab chiqish.

Milliy tilni saqlashdagi qiyinchiliklar bugungi kunda globalizatsiya, texnologiya va madaniy ta'sirlar bilan bog'liq bo'lsa-da, bu jarayonlarni samarali boshqarish mumkin. Milliy tillarni saqlash va rivojlantirish uchun ko'plab yechimlar mavjud, ular ta'lim tizimi, raqamli platformalar, siyosat va madaniyat orqali amalga oshirilishi lozim. Davlatlar, jamiyatlar va shaxslar milliy tilni saqlashga bo'lgan mas'uliyatni his qilishlari va bu tilni kelajak avlodlarga muvaffaqiyatli yetkazish uchun sa'y-harakatlar qilishlari zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. AD Ikramboyevna, SD Ikramboyevna, The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics, International Journals of Sciences and High Technologies, 2023
2. A . K . Shamsheva , R. N. Melibayeva, X. E. Usmanova, I. O. Xaydarov. Umumiy psixologiya O'quv qo'llanma. - T.: Barkamol fayz media , 2018. - 272 b
3. SD Ikramboyevna, Classification of Functions of Communicative Strategy and Tactics in Political Communication, Miasto Przyszłości 50, 548-553, 2024
4. M Ubaydullayeva, U Murodova, Saida Zunnunova Asarlarida Kurashchan Qahramon Talqini, Академические исследования в современной науке 2 (23), 123-135, 2023
5. B. M. Umarov. Psixologiya Darslik - T.:, 2012
6. UM Azamatovna, The History Of The Development Of The Terms Of Literary Studies Of The Turkic Peoples
7. D Axmedova, S Zarmaskhonov, Exploring Global Perspectives In Language Teaching And Learning, Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 205-207, 2024.
8. Abdufattokhov, S., Ibragimova, K., & Gulyamova, D. (2021, November). The applicability of machine learning algorithms in predictive modeling for sustainable energy management. In International Conference on Forthcoming Networks and Sustainability in the IoT Era (pp. 379-391). Cham: Springer International Publishing.
9. Ghodake, S. P., Malkar, V. R., Santosh, K., Jabasheela, L., Abdufattokhov, S., & Gopi, A. (2024). Enhancing Supply Chain Management Efficiency: A Data-Driven Approach using Predictive Analytics and Machine Learning Algorithms. International Journal of Advanced Computer Science & Applications, 15(4).
10. Dohare, S., Pamulaparthi, L., Abdufattokhov, S., Naga Ramesh, J. V., El-Ebiary, Y. A. B., & Thenmozhi, E. (2024). Enhancing Diabetes Management: A Hybrid Adaptive Machine Learning Approach for Intelligent Patient Monitoring in e-Health Systems. International Journal of Advanced Computer Science & Applications, 15(1).
11. Honkeldieva, M., Bukhorov, K., Sayfiyeva, M., & Choriyeva, G. (2023, March). Study on the clathrates and polymorphes of plant polyphenols. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1142, No. 1, p. 012068). IOP Publishing.

12. Ruziev, S., Honkeldieva, M., Bukhorov, K., & Sayfiyeva, M. (2023). Spread, damage and control measures of powdery mildew disease of grain crops. In E3S Web of Conferences (Vol. 421, p. 02011). EDP Sciences.
13. Khojamkulova, Y., Honkeldieva, M., & Choriyeva, G. (2023). Effect of abiotic stresses on the physiological characteristics of rice (*Oryza sativa*). In E3S Web of Conferences (Vol. 421, p. 05002). EDP Sciences.
14. Abdufattokhov, S., Normatova, N., & Shermatova, M. (2022). Artificial Neural Networks Based Predictive Model for Detecting the Early-Stage Diabetes. Journal of Artificial Intelligence, Machine Learning and Neural Network (JAIMLNN) ISSN, 2799-1172.
15. Chen, Z., Xie, M., Zu, Q., & Abdufattokhov, S. (2023). Electrical Automation Intelligent Control System Based on Internet of Things Technology. *Electrica*, 23(2).
16. Islomjanovna, A. M. (2024). Bolaning Ijtimoiylashuv Jarayonidagi Omillar Hamda Oil A Va Jamiyatning Ahamiyati. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(6), 1154-1158.
17. Islomjanovna, A. M. (2022). Traditions of culture in Islam and their modern significance. *World Bulletin of Social Sciences*, 9, 198-202.
18. Abdufattokhov, S., Mahamatov, N., Ibragimova, K., Gulyamova, D., & Yuldashev, D. (2022). Supervisory optimal control using machine learning for building thermal comfort. *Operations Research and Decisions*, 32(4).

## INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA O‘QITISH

*Nazarov Bahodir Abdusamatovich*

*TATU Samarqand filiali “Kompyuter injiniringi” fakulteti dekan*

*Telefon: +998(97) 287 83 77*

*e-mail: [nazarovbahodir82@gmail.com](mailto:nazarovbahodir82@gmail.com)*

### ANNOTASIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalar asosida multimediali qo‘llanmalar yaratish va ulardan foydalanib dars mashg‘ulotlarini tashkil qilish masalalari muhokoma qilingan.


***Kalit so‘zlar:** Informatika va axborot texnologiyalari, Elektron pochta ishlashni boshlash, dasturiy vosita, elektron qo‘llanma, gipermatn, ovoz, grafika, video, test, multimedia, animasiya, imitasion model, umumiy o‘rta ta‘lim, dasturiy vosita.*

**Kirish.** Ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish albatta o‘z samarasini beradi. Ba‘zi fikr-qarashlar zamonaviy axborot texnologiyalar yoshlar ongiga ta‘siri borasida tanqidiy mulohaza yuritishi tabiiy hol sababi yoshlarning qiziquvchanligi internet va mobil aloqa vositalarga bog‘lanib qolishi bilan izohlanadi. Muammoni mobil texnologiya va internetni cheklab qo‘yish bilan yechib bo‘lmasligini barchamiz bilamiz, lekin baribir yoshlar tanqid ostida qolaveradi. Hozirgi kunda barkamol avlodni tarbiyalarshda albatta internetdagi ma‘lumotlardan foydalanish madaniyatini (informatsion immunitet) o‘rgatish talab etiladi. Bu texnologiyalarga qiziqishni to‘g‘ri maqsadga yo‘naltirish milliy ma‘lumotlar ba‘zasini ko‘paytirish bilan bog‘liq. Ayniqsa ta‘lim tizimida elektron qo‘llanmalar va virtual ta‘lim tizimlardagi milliy ma‘lumotlar ba‘zasining ko‘payishi yoshlarning ta‘lim olishlari uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ma‘lumki darsning odatiy – ana‘naviy o‘tilishi o‘quvchilarning 25% ga yaqini o‘zlashtirishi mumkinligi pedagog olimlar tomonida isbotlangan. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bir vaqtning o‘zida ham ma‘ruzani eshitish, ham materialni kompyuter ekranida ko‘rish va uni ekranda chiqarishni aktiv boshqarish o‘zlashtirish sifatini oshiradi.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta‘lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbollidir. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta‘minot, qo‘shimcha va yordamchi vositalar kiradi.

Tadqiqotda qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda o‘quvchilarni 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan tasavvur qilish ko‘nikmalari rivojlantirilgan. Dasturiy vositalar asosida yaratilgan elektron qo‘llanmada 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” faniga oid mavzular animasion ko‘rinishda mazmunan yoritib hozirgi darsikdan farqli ravishda o‘quvchiga tushunarli va mustaqil uy sharoitida ham o‘rgana oladigan qilib berilgan (1-rasmga qarang).



### 1-rasm. Dasturiy vosita muqovasining ko‘rinishi

Yuqorida berilgan rasmdagi muqova oynasida berilgan “Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash”, “Tasvirlar bilan ishlashni boshlash”, “Diagrammalar bilan ishlashni boshlash”, “Dasturlashni boshlash” va “Qidiruv tizimlarida ishlashni boshlash” tugmalaridan biriga murojaat qilganimizda shu tugmada yozilgan mavzular bo‘yicha tegishli ma‘lumotlar oynasi ochiladi.

Muqovada berilgan tugmalardan 1-siga murojaatni amalga oshirganimizda dasturda buni ochilishini animatsion ravishda ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash oynasi**


Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash oynasida ham bir nechta tugmalar o‘rnatilgan va bu tugmalar 2-rasmda qizil chiqizlar bilan chegaralab qo‘yilgan. Bundan tashqari oynaning pastki qismida orqaga va oldinga tugmalari ham o‘rnatilgan bo‘lib ularga murojaat qilinganda oynalar navbati bilan almashinib keladi. Bu tugmalardan yuqorida joylashgan Word dasturi belgisi ustiga sichqoncha ko‘rsatkichi bosilganda Microsoft Word dasturi haqida qisqacha ma’lumotlar bayon etilgan oyna ochiladi (3-rasmga qarang).

So‘z yozish uchun shu so‘zga kerakli bo‘lgan harflar klaviaturadan topiladi va kerakli ketma-ketlikda bosiladi. Har bir harf so‘z yasash uchun ekranda yozilishni boshlaydi. Shuningdek, harflar belgilar deb ham ataladi. Gap yozish uchun birinchi so‘zni kiritganingizda yoki bitta so‘z kiritganingizda, so‘zning birinchi harfi bosh harfga o‘zgarganini ko‘rishingiz mumkin. Odatda Microsoft Word har bir gapning birinchi harfini bosh harfga avtomatik ravishda almashtiradigan qilib sozlangan bo‘ladi. Bosh harflarda yozish harfni bosh harf ko‘rinishiga o‘tkazish uchun Shift tugmasini bosib ushlab turing, keyin bosh harfdan yozmoqchi bo‘lgan harfni kiriting. Harfni yozib bo‘lganingizdan keyin shift tugmasini qo‘yib yuborasiz.

## MICROSOFT WORD DASTURI

Office paketi dasturlari orasida qo'llanilish bo'yicha eng birinchi o'rinda turuvchi dastur bu – MS Word matn protsessori. 1992-yildan beri uning 10 dan ortiq versiyalari yaratildi.

Masalan, Word 2007 versiyasidan boshlab foydalanuvchilarga oddiy hol bo'lib qolgan menyu satri o'rniga Ribbon (tasmasli panel) deb nomlangan ko'rinish taqdim etildi.



### 3-rasm. Microsoft Word dasturi imkoniyatlari oynasi

Word matn muharriri Windows sistemasi muhitida ishlaydigan matn muharriri bo'lib, oddiy va murakkab strukturali matnli hujjatlarni tashkil qilish va chop etish uchun xizmat qiladi. Word matn muharriri yordamida har qanday hujjatni tez va bosmaxona talabiga javob beradigan darajada tayyorlash mumkin. Word matn muharriri matnlar ustida bajariladigan hamma operatsiyalarni keraklicha bajarish imkoniyatlariga ega bo'lib, zamonaviy kompyuter texnologiyasining hamma talabini o'z ichiga oladi.

Word matn muharriri ekranda "Microsoft office" da "W" belgisi bilan ko'rsatilgan bo'ladi. Uni ishga tushirish sichqoncha ko'rsatkichini "W" belgisiga keltirib, sichqonchani o'ng tugmachasini bosish bilan bajariladi. So'ng Word matn muharriri komp'yuter xotirasiga yuklanadi va oddiy strukturali matnlarni kiritish uchun "Документ 1" nomli yangi fayl hosil qiladi. Agar siz murakkab strukturali hujjat (masalan xat, faks orqali jo'natiladigan xat, hisobotlar va hakoza) tayyorlamoqchi bo'lsangiz u holda "Файл" menyusidan "Создать" menyu ostini ishlatasiz. U yerda bir necha murakkab strukturali hujjatlar shabloni berilgan. Siz ulardan o'zingizga kerak bo'lgan strukturali hujjat shablonini tanlab, o'zingizni hujjatingizni tez va yuqori darajada tayyorlaysiz. Tayyor bo'lgan hujjat "Файл" menyusining "Сохранить" yoki "Сохранить как" komandalaridan biri yordamida



saqlanadi. Word sizning hamma fayllarinigizga “.doc” nomli kengaytma nom qo‘shib saqlaydi. Ishni tamomlash uchun saqlab qo‘yilgan hujjat “Файл” menyusining “Закрыть” komandasi bilan yopiladi va “Выход” komandasi bosiladi.

Word matn muhariri oynasining umumiy ko‘rinishi quyida keltirilgan. Oynaning eng yuqori satri, sarlavha satri bo‘lib, unda matn muharrirning belgisi va nomi ko‘rsatiladi. Shu satrning eng o‘ng qismida uchta kichik tugmacha ko‘rsatilgan bo‘lib, ular mos ravishda oynani ekrandan olish, oyna kattaligini ekran kattaligiga tenglashtirish va oynani yopish vazifalarini bajaradi. Oynaning ikkinchi satri WORDning asosiy menyular satri bo‘lib, har bir menyu o‘ziga xos funksiyalarni bajaradi. Oynaning keyingi ikki satrlarida instrumyentlar paneli joylashgan va ular bajaradigan funksiyasiga mos piktogrammali tugmachalarda berilgan. Ularning funksiyalarini bilib olish uchun sichqoncha ko‘rsatkichini piktogrammalar ustiga keltirish kifoya. Instrumyentlar panelidan keyingi satr lineyka deb ataladi va oynaning matn yoziladigan qismi satrlarini kengaytirish va qisqartirish uchun xizmat qiladi.

Xuddi shunday umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidagi qolgan bo‘limlar va mavzularining elementlari hamda tegishli masalalarini yechish jarayoni va bajaradigan vazifalari birma-bir multimediali elektron qo‘llanmada animatsion ishlanmalari yordamida yoritib berilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining barcha mavzularini o‘rgatishda multimediali elektron qo‘llanmadan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ularga mustaqil ishlash imkoniyatlarini ham oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Lutfullayev M.X. Multimediali didaktik vositalar asosida ta’lim tizimi samaradorligini oshirish //Ta’lim va tarbiya. –Toshkent: -2003-y. -№3-4. B. 55 - 57.
2. Lutfillayev M.H., Fayziyev M.A. Multimediali elektron darsliklarda o‘qitish metodikasi // Uzluksiz ta’lim. –Toshkent, 2002-y. -№4. -B. 79-81.
3. Lutfillayev M.H. Elektron darsliklardan o‘quv jarayonida foydalanish // Xalq ta’limi jurnali. -Toshkent: -2003-y. -№4. -B. 92-93.
4. Lutfillayev M.H. Multimediali elektron darsliklar yaratish talablari // Boshlang‘ich ta’lim. –Toshkent: -2003-y. -№4. -B. 20-21.
5. Asfandiyorovich F. N. et al. BASICS OF PROGRAMMING FROM THE TEXTBOOK OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES CHAPTER PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE METHODOLOGY OF

- MULTIMEDIA //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 778-781.
6. Xasanovich, Prof L. M., et al. "Development of Computer Simulation Model Develops Creative Thinking of the Student." *JournalNX*, vol. 7, no. 03, 2021, pp. 167-171.
  7. Asfandiyorovich F. N. Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia Electronic Manuals //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 16. – C. 42-45.
  8. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2022). TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI DOIR KOMPYUTER IMITATION MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 273–278.
  9. Fayziyev, N. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI MULTIMEDIALI ELEKTRON QO'LLANMA ASOSIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI ANIQLASH. *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*, 1(01). Retrieved from <http://ojs.qarshidu.uz/index.php/con/article/view/175>
  10. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich, & Toxirqulov Zufar Jurabek o'g'li. (2023). Registering and Creating Presentations on prezi.com. *World of Semantics: Journal of Philosophy and Linguistics*, 1(1), 66–71. Retrieved from <http://wos.semanticjournals.org/index.php/JPL/article/view/11>
  11. Fayziyev N. THE IMPORTANCE OF IMPLEMENTING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 10. – C. 172-175.
  12. Asfandiyorovich F. N., O'g'li T. Z. J. ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA XORIJIY TILLARGA OID TAQDIMOTLAR YARATISH //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 19. – C. 359-363.
  13. Asfandiyorovich F. N. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI TAKOMILLASHTIRILGAN METODIKA ASOSIDA O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 5. – C. 198-200.
  14. Asfandiyorovich F. N. TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI MULTIMEDIALI ELEKTRON QO'LLANMALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH //ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИДАГИ ЯНГИ ТАРИХИ ВА ФАЛСАФИЙ ТАФАККУРИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ. – 2022.

## SHASHMAQOM- O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSI.

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası 12-1vokal 21  
guruh talabasi

**Shabonov Firdavs Umidovich**

San'atshunoslik va pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

**Ramazonova O'g'iloy**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shashmaqomning asosan o'zbek xalqining musiqiy merosida asosiy o'rin tutishi, maqom turkumlari haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Shashmaqom, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari.

Shashmaqom (ruscha: *Шаашмаком*; tojikcha: *шаашмақом*; forscha: مقامشش) — Markaziy Osiyo (asosan, o'zbek va tojik) xalqlari musiqiy merosida markaziy o'rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan mumtoz kuy va ashulalar majmui. U muayyan shart sharoitlarda musiqiy folklor hamda kasbiy musiqi yo'nalishlarida orttirilgan ko'p asrlik ilmiy-ijodiy tajriba hamda izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Shashmaqom milliy hamda mintaqaviy mumtoz musiqi an'alarining tarixan uzun taraqqiyot jarayoni natijasida bir qator bastakorlar avlodi san'atining qomusiy mahsulidir. O'rta asr Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqi ilmda maqom, asosan, parda tuzilmalari tushunchasini hamda ularga mos holda yaratilgan kuy va ashulalarni ifodaladi. Maqomlar dastlabki davrda tarqoq shakllarda rivojlandi, XII-asrda esa Safiuddin al-Urmaviy ularni o'n ikki asosiy maqomdan iborat nazariy tizim shakliga keltirdi.

XVII asrdan so'ng O'n ikki maqom tizimi inqirozga uchrab, uning negizida Sharq xalqlari orasida maqomlarning yangicha milliy va mahalliy shakllari vujudga kela boshladi. Xususan, XVIII asrning o'rtalarida O'rta Osiyoning yirik madaniy markazlaridan biri Buxoro shahrida saroy sozanda, xonanda va bastakorlari ijodiy ijrochilik faoliyatida shashmaqom uzil-kesil shakllanib, Buxoro maqomlari, Buxoro Shashmaqomi nomlarida ham yuritildi. O'zbek maqom turlaridan Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, shuningdek, yovvoyi (erkin ko'rinishdagi) maqomlar, surnay, dutor yo'llari va boshqalar shashmaqom ta'sirida rivojlandi. O'tgan zamon bastakorligida keng qo'llangan amal, kor, naqsh, pehrav, savt, taron, qavl kabi janrlarning noyob namunalari shashmaqom tarkibida bizgacha

yetib keldi. Shashmaqom Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan bo'lib, jami 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalardan iborat. Shu kunga qadar sozanda, hofiz va bastakorlar maqom yo'llarining ko'plab ijroviy talqinlarini kashf etdilar, ovo, tanbur, surmay, dutor va boshqalar maqom yo'llarida bir qismli va turkumli asarlar ijod qildilar, ular asosida yangi kuy va ashulalar yaratdilar. Shashmaqom shakli bastakorlik san'atining mahsulidir. Bastakorlik an'analari ham juda qadimdan boshlab davom etib kelmoqda. Temuriylar, ayniqsa Navoiy davrida, keyinchalik XVI-XVII asrlarda bastakorlik san'ati yuksak darajada bo'lganligi qo'lyozma manbalarda ma'lum. Bastakor so'zi tojikcha bo'lib, bog'lovchi, bastalovchi ma'nosini anglatadi. O'tmishda bastakorlarning faoliyati turlicha bo'lgan. Dastlab ular maqomlar va xalq musiqa asarlari asosida betakror kuy va ashulalar yaratganlar. Yana, bastakorlar maqom pardalari negizida yangi-yangi yo'llar, yaratganlar, tayyor kuyga yangi pardalar kiritib, yoki uni boshqa doira usuliga tushirib, jozibali va mukammal asarlarni yuzaga keltirganlar. Binobarin, she'r matnlarining ashulaga shaklan hamda mazmunan moslab tushirilishiga ham alohida ahamiyat berganlar. Shashmaqomdagi turkumlarning yuzaga kelishila bastakorlardagi bunday tajriba alohida ahamiyat kasb etadi. Ba'zan sho'balar, masalan, Buzruk maqomidagi Talqini Uzzol, Nasri Uzzol va Ufari Uzzol qismi ohangdosh ashulalar bo'lib, faqat doira usuli va she'r o'lchovidangina farq etadi. Shashmaqom turkumlari ko'pincha ashulalarning yangidan-yangi variantlarini yaratish bilan takomillashtiriladi.

Shunday qilib, Shashmaqom o'tmishdagi bastakorlik an'alarining mahsuli sifatida, maqomchilikdagi boy tajribaga asoslangan holda yuzaga keldi. Keyingi ikki asrdan ko'proq, o'tgan davr ichida, bir sozanda – xonandadan ikkinchisiga og'zaki tarzda o'tib kelishi jarayonida Shashmaqom tobora juda katta o'zgarishlarga uchradi va bizgacha etib keldi. Bu narsa XIX asrda tuzilgan va maqomlarga aytilgan she'r to'plamlaridagi maqom va sho'balar nomini, she'r o'lchovlari hozirgi maqom qismlari bilan solishtirilsa, yaqqol seziladi. Shashmaqom o'zbek xalqi musiqa merosida juda katta o'rin tutadi Shashmaqom yo'llarida milliy va mahalliy musiqaning boy ohanglari, vazn xususiyatlari, doira usullari va ashulalar she'rlarini moslab tushira bilish qoidalariga bog'liq qator tomonlar mujassamlangan.

Xalq musiqa asarlarining qaysi birini olib qaramang, ular u yoki bu maqom yoki uning sho'ba pardasi, kuy tuzilishi, doira usuliga juda o'xshashligani bilib olish mumkin. Keyingi kuzatishlar Shashmaqom, xalq musiqa merosining asosini tashkil etadi deyishga imkon beradi. U 250 ga yaqin cholg'u va ashula yo'llarini o'z ichiga

oladi. Ular asosida yaratilgan yuzlab xalq kuy va ashula namunalari, surnay yo`llari hisobga olinsa, maqomlarning xalq musiqasida tutgan o`rni naqadar baland ekanini yana bir bor bilib olish mumkin. Shashmaqomga kirgan oltita maqomning har biriga alohida to`xtalib o`tishdan avval maqomlarning tuzilish qoidalari haqida umumiy tarzda tushuncha beramiz. Shashmaqom - tojikcha olti maqom demakdir. Shashmaqom tarkibidagi Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlarining har biri yirik shakldagi turkumli asarlar bo`lib, 20 tadan 45 tagacha katta va kichik hajmdagi maqom yo`llarini o`z ichiga oladi. O`tmishda maqomlarning ijri etilishida tanbur va doira etakchi sozlardan hisoblangan. Maqom qismlari turkum tarzida yoki yakka kuy va ashulalar tarzida yakka navozanda xonanda yoki dastalar tamonidan ijro etilgan. Jo`navozlik tarkibida Ikkita tanbur, bitta dutor, bitta qubuz yoki sato, doira va bir necha hamnafas xonandalar bo`lgan. Ko`rinib turibdiki, dastaga yolg`iz torli asboblari kiritilgan. Bizningcha tanburning etakchi soz deb qabul qilinishiga ham ma`lum sabab bor. U turli maqomlarga moslab sozlashga qulay bo`lgan. Mabodo ashulachining ovozi keng diapazonli maqom yo`llariga yeta olmasa, uni bir-ikki pardaga past qilib sozlash mumkin edi. Olti maqomlarga asboblarni sozlashda ham tanbur qandaydir o`lchovli soz bo`lgan. Binobarin uni turli maqomlarga moslab sozlash mumkin. Shu sababli olti maqomga tanbur uch xil (kvinta, kvarta va katta sekunda) qilib sozlangan va Mezrobi Rost, Mezrobi Segoh, hamda Mezrobi Navo deb nomlangan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Holmurodovna R. U. I., Oqila S. Makom art is a priority in the musical culture of Uzbekistan //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 2 (47). – С. 87-88.
2. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
3. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
4. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o`rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501.
5. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 336-339.
6. Рамазонова Ў. Х. ТАЛАБАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТУШУНЧАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, ГУРУҲ БИЛАН ИШЛАШ ВА УНИ БОШҚАРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ.

7. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.
8. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. ПОДГОТОВКА МОЛОДЫХ ПЕВЦОВ К АНСАМБЛЕВОМУ ВЫСТУПЛЕНИЮ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1. – С. 88-91.
9. Ramazanova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
10. Ramazanova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.
11. Kholmurodovna R. O., Abdulatif T. Note Reading Exercises in Primary Classes in Music Schools //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – С. 231-233.
12. Kholmurodovna, R. O., & Ilkhomovich, T. R. (2024). A Look at Some of the Problems of Teaching Solfeggio in Children's Music and Art Schools. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(5), 228-230.
13. Jamilovna E. M. Musiqa o'qituvchisini zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash //INTERNATIONAL CONFERENCE ON ADVANCE SCIENCE AND TECHNOLOGY. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 160-164.
14. Kholmurodovna, Ramazonova Ogiloy, and Torayev Ruslan Ilkhomovich. "A Look at Some of the Problems of Teaching Solfeggio in Children's Music and Art Schools." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 4.5 (2024): 228-230.
15. Jamilovna E. M. Musiqa o'qituvchisini zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash //INTERNATIONAL CONFERENCE ON ADVANCE SCIENCE AND TECHNOLOGY. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 160-164.
16. Kholmurodovna R. O., Abdulatif T. Note Reading Exercises in Primary Classes in Music Schools //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – С. 231-233.
17. Kholmurodovna, Ramazonova Ogiloy, and Torayev Ruslan Ilkhomovich. "A Look at Some of the Problems of Teaching Solfeggio in Children's Music and Art Schools." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 4.5 (2024): 228-230.
18. Saidaxmedov S. et al. XORAZM MAQOMLARINING TALABALARGA O'RGATISH USULLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – С. 324-326.

19. Ramazanova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
20. Ramazanova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 336-339.
21. Рамазонова У. Х. Эсанова Махлиё Жамиловна Подготовка Молодых Певцов К Ансамблевому Выступлению. – 2021.
22. Рамазонова Ў. Х. Талабаларда маънавий-ахлоқий тушунчаларни шакллантириш, гуруҳ билан ишлаш ва уни бошқариш тамойиллари //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 586-590.
23. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501.
24. Olimov S. S., Mamurova D. I. Directions For Improving Teaching Methods //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – С. 9671–9678-9671–9678.
25. Aminov, A. S., Mamurova, D. I., & Shukurov, A. R. (2021, February). Additional and didactic game technologies on the topic of local appearance. In *E-Conference globe* (pp. 34-37).
26. Olimov S. S., Mamurova D. I. Information Technology in Education //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 17-22.

## IJTIMOIIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINING NAZARIY MASALALARI

**Rustambekova Nigora Abduganisovna**  
**Chirchiq Davlat Universiteti Mustaqil Izlanuvchisi**  
[NIGORARU1982@GMAIL.COM](mailto:NIGORARU1982@GMAIL.COM)  
**TEL:+99893 585 99 38**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari va jamiyat rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Fuqarolik kompetensiyasi tushunchasi fuqarolik jamiyatini shakllantirish va fuqarolarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada ijtimoiy faollikning shakllanishida ta’lim va madaniyatning o‘rni, shuningdek, raqamli transformatsiyaning roli yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy faol fuqarolik, kompetensiya, ta’lim, huquqiy madaniyat, raqamli transformatsiya, jamiyat rivojlanishi.

**Kirish.** Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi jamiyatning barqarorligi va rivojlanishiga hissa qo‘shadigan asosiy elementlardan biridir. Bu tushuncha shaxsning huquqiy ongini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini va jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy dunyoda fuqarolik kompetensiyasi global muammolarni hal qilishda ahamiyat kasb etmoqda, bu esa uning nazariy asoslarini chuqur o‘rganishni talab qiladi. Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida ijtimoiy faol, barkomol yosh-avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa sifatida ilgari surilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 23 sentyabrdagi 75 sessiyasida so‘zlagan nutqida yoshlar masalasiga to‘xtalar ekan: «mamlakatimiz aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit – qizning jamiyatda munosib o‘rin egallashi va o‘z salohiyatini namoyon etishi bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda» O‘zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko‘rsatmoqda<sup>1</sup>. Bugungi tez o‘zgaruvchan va o‘zaro bog‘liq dunyoda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi shaxslar uchun murakkab ijtimoiy muammolarni hal qilish va o‘z jamoalariga mazmunli hissa qo‘shish uchun

<sup>1</sup><https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/19445/13246/17753>



ajralmas sifatga aylandi. Bu kompetensiya shaxslarga fuqarolik hayotida faol va mas'uliyat bilan qatnashish, ijtimoiy muammolarni hal qilishda hamkorlikda ishlash va umumiy manfaatni ilgari surish imkonini beradi. Ushbu maqola ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishga asos bo'lgan nazariy-uslubiy asoslarni o'rganadi<sup>2</sup>.

*Asosiy qism.* Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining shakllanishida quyidagi yondashuvlar ajralib turadi:

1. **Fuqarolik kompetensiyasi tushunchasi**

Fuqarolik kompetensiyasi – shaxsning ijtimoiy masalalarni tushunish va ularda faol ishtirok etish qobiliyatidir. Bu kompetensiya huquqiy bilimlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy-siyosiy ko'nikmalarning majmuasidir.

2. **Ijtimoiy faollik va uning tarkibiy qismlari**

Ijtimoiy faollik shaxsning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, jamoaviy muammolarni hal qilishdagi mas'uliyatini anglash orqali namoyon bo'ladi. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **Huquqiy ong:** fuqarolik huquqlari va burchlarini bilish.
- **Axloqiy qadriyatlar:** mas'uliyat va birdamlik.
- **Jamoaviy faollik:** ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish.

3. **Nazariy yondashuvlar**

- **Sotsial-konstruktivizm:** ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi.
- **Pragmatik yondashuv:** amaliy faoliyat orqali rivojlanadi.
- **Gumanistik nazariya:** shaxsiy rivojlanish jarayonida tarkib topadi.

Fuqarolik kompetensiyasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar:

1. **Ta'lim va tarbiya** Ta'lim tizimi fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda asosiy o'rinni egallaydi. Maktab va oliy ta'limda fuqarolik fanlari, huquqiy madaniyat va jamoaviy faoliyat bo'yicha maxsus dasturlar joriy etilishi zarur.

2. **Raqamli transformatsiya** Internet va ijtimoiy tarmoqlar shaxsning ijtimoiy faolligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shaxsning onlayn faolligi orqali jamoaviy muammolarni hal qilishda ishtirok etishi fuqarolik kompetensiyasining muhim ko'rinishidir.

3. **Jamiyatning ijtimoiy muhitiga bog'liqlik** Ijtimoiy muhit, oilaviy qadriyatlar va madaniyat fuqarolik kompetensiyasining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

<sup>2</sup><https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/download/1082/1089/2104>

N.M.Voskresenskaya o‘zining ilmiy tadqiqotlarida faol fuqaroni tarbiyalashda fuqarolik ta’limining loyihaviy modelini yaratish, o‘quvchilarning muayyan ijtimoiy muammoni aniqlash, tahlil qilish va hal etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy loyihani ishlab chiqishlari va amalga oshirishlarini ko‘zda tutgan. Olim o‘z qarashlarida o‘quvchilarning loyihaviy faoliyatlari ularning ma’lum ijtimoiy muammoni tanlash, uni tahlil qilish va hal etish variantlarini ishlab chiqish bo‘yicha faol faoliyatlarni ko‘zda tutgan. Bunda ijtimoiy kompetensiyalar egallanadi, o‘smirlar esa atrof hamjamiyatdagi ijtimoiy vaziyatni yaxshilash bo‘yicha mas’uliyatli qarorlarni qabul qilishga moslashadi. O‘quvchilarda fuqarolik ta’limi orqali ijtimoiy ta’lim olishning samaradorligi, o‘zlashtirishning ijtimoiy faol metodlari bilan birlashtirish (treninglar, ishbilarmonlik o‘yinlari, munozaralar, aqliy hujum, interaktiv metodikalar va h.k.) hisobiga erishiladi. Bundan tashqari fuqarolik ta’limida shaxs ongini shakllantirish (suhbat, bahsmunozara, namuna, ko‘rsatma, tushuntirish va h.k.), o‘quvchilarning xulqlari va faoliyatlarini tashkil etish va rag‘batlantirish metodlari (talablar, ijtimoiy fikr, tarbiyaviy vaziyatlar, rag‘batlantirish, jazolash) keng qo‘llaniladi<sup>3</sup>.

**Xulosa va tavsiyalar.** Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi zamonaviy jamiyat rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Uning shakllanishi va rivojlanishi uchun ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, jamiyatda huquqiy ongni oshirish va ijtimoiy faollikni rag‘batlantiruvchi dasturlarni rivojlantirish lozim. Raqamli transformatsiya davrida esa onlayn platformalar orqali fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/19445/13246/17753>
2. <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/download/1082/1089/2104>
3. Abdug‘aniev Ozod Tursunboy O‘g‘li TALABALARDA IJTIMOY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI // SAI. 2023. №Special Issue 5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarda-ijtimoiy-faol-fuqarolik-kompetensiyalarini-rivojlantirishning-pedagogik-psixologik-imkoniyatlari> (дата обращения: 25.11.2024).
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

<sup>3</sup>Abdug‘aniev Ozod Tursunboy O‘g‘li TALABALARDA IJTIMOY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI // SAI. 2023. №Special Issue 5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarda-ijtimoiy-faol-fuqarolik-kompetensiyalarini-rivojlantirishning-pedagogik-psixologik-imkoniyatlari> (дата обращения: 25.11.2024).

**TIJORAT BANKLARIDA KASSA OPERATSIYALARINING HISOBI VA  
UNING AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi magistranti  
Buronov Sherzod Baxtiyor o'gli*

**IMPROVING CASH OPERATIONS ACCOUNTING AND ITS AUDIT IN  
COMMERCIAL BANKS**

*Graduate student of the Academy of Banking and Finance of the Republic of  
Uzbekistan*

*Buronov Sherzod Baxtiyor o'gli*

Mamlakatimizda tijorat banklari iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular nafaqat moliyaviy xizmatlarni ko'rsatadi, balki iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni boshqaradi. Banklar tomonidan amalga oshiriladigan kassa operatsiyalari, ya'ni naqd pul bilan bog'liq barcha moliyaviy amallar, bank faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu operatsiyalarni hisobga olish va audit qilish esa, banklarning moliyaviy shaffofligi, samaradorligi va xavfsizligini ta'minlash uchun zarur.

Kassa operatsiyalarining hisobini to'g'ri tashkil etish va audit qilishni takomillashtirish, zamonaviy bank faoliyatining samaradorligini oshiradi va moliyaviy tizimni ishonchli qiladi. Shu nuqtai nazardan, kassa operatsiyalarini hisobga olishning nazariy asoslarini, shuningdek, ularning auditini takomillashtirishning nazariy jihatlarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

**II. Kassa operatsiyalarining nazariy asoslari**

**1. Kassa operatsiyalari tushunchasi va ularning turlari:**

○ **Naqd pul bilan operatsiyalar:** Tijorat banklarida kassa operatsiyalari asosan naqd pulning qabul qilinishi, chiqarilishi, almashinuvi va boshqa turdagi harakatlarni o'z ichiga oladi.

○ **Kassa operatsiyalarining turlari:**

- Naqd pul qabul qilish: mijozlardan naqd pulni qabul qilish, depozitlar.
- Naqd pul chiqarish: mijozlarga naqd pul berish, kreditlar.
- Naqd pul bilan bog'liq boshqa operatsiyalar: valyuta almashtirish, o'zaro hisob-kitoblar.

2. **Kassa operatsiyalarining hisobga olish tamoyillari:**

- **Ishonchlilik va aniq qayd etish:** Kassa operatsiyalari to‘g‘ri va aniq qayd etilishi zarur, bu orqali bankning moliyaviy holati to‘g‘ri aks ettiriladi.
- **Shaffoflik:** Barcha kassa operatsiyalari hujjatlar bilan tasdiqlanishi va tegishli qaydlar bilan isbotlanishi kerak.
- **Xatolik va firibgarliklarning oldini olish:** Har bir operatsiya yuzasidan aniqlik va ehtiyotkorlik talab etiladi.

3. **Naqd pulning o‘ziga xos xususiyatlari:**

- **Naqd pulning tez harakatlanishi:** Kassa operatsiyalarida naqd pul harakatlari juda tez o‘zgarib turadi, bu esa hisobga olishni murakkablashtiradi.
- **Hujjatlar va xatoliklar:** Naqd pul bilan bog‘liq barcha operatsiyalar hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak, aks holda xatoliklar va firibgarliklar yuzaga kelishi mumkin.

**III. Kassa operatsiyalarining auditini takomillashtirishning nazariy asoslari**

1. **Auditning maqsadi va vazifalari:**

- **Auditning asosiy maqsadi** – bankning moliyaviy holatini aniqlash va kassa operatsiyalarining to‘g‘riligini tekshirish. Auditing asosiy vazifalari:
  - Kassa operatsiyalarining aniq va to‘g‘ri hisobga olinishi.
  - Bankning moliyaviy hisobotlarining shaffofligi va ishonchliligini ta‘minlash.
  - Xatoliklar, firibgarliklar va noqonuniy harakatlarning oldini olish.

2. **Auditning asosiy tamoyillari:**

- **Objektivlik:** Auditorlar kassa operatsiyalarini tekshirayotganda, ularning faoliyatini mustaqil va ob'ektiv baholashlari kerak.
- **Shaffoflik:** Kassa operatsiyalarining auditini amalga oshirgan auditorlar barcha tekshiruv jarayonlarini aniq va tushunarli qilib bajarishlari lozim.
- **Mukammallik:** Kassa operatsiyalarining auditini amalga oshirishda barcha tegishli hujjatlar va operatsiyalarni to‘liq o‘rganish zarur.

3. **Audit jarayonining asosiy bosqichlari:**

- **Rejalashtirish:** Auditing boshida kassa operatsiyalarini tekshirish uchun maxsus rejalar va standartlar ishlab chiqiladi.
- **Kassa operatsiyalarining tekshiruvi:** Har bir operatsiya uchun hujjatlar, kassirlarning hisobotlari va boshqa tegishli ma'lumotlar tekshiriladi.

- **Auditorlik hisobotining tayyorlanishi:** Barcha audit jarayonlarining yakunida auditorlar hisobot tayyorlaydi va kassa operatsiyalarining to'g'riligini tasdiqlaydigan xulosalar chiqariladi.

#### 4. **Texnologiyalarning roli:**

- **Avtomatlashtirish va elektron tizimlar:** Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, elektron tizimlar va avtomatlashtirilgan kassa tizimlari audit jarayonlarini samarali va aniq amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.
- **Axborot texnologiyalarining imkoniyatlari:** Kassa operatsiyalarini avtomatik ravishda ro'yhatga olish va kuzatish, auditni soddalashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi.

#### **IV. Kassa operatsiyalarini hisobga olish va auditini takomillashtirish yo'llari**

##### 1. **Axborot tizimlarini optimallashtirish:**

- Kassa operatsiyalarini avtomatlashtirish va elektron hisoblash tizimlarini joriy etish orqali operatsiyalarning tezligi va aniqligini oshirish.
- Naqd pul harakatlarini boshqarish uchun maxsus dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish.

##### 2. **Auditorlik nazoratini kuchaytirish:**

- Bankda kassa operatsiyalarini audit qilish uchun mustahkam ichki nazorat tizimini yaratish.
- Auditorlik tekshiruvlarini yanada takomillashtirish, masalan, bankda kassa operatsiyalarining barcha bosqichlarini tekshirish.

##### 3. **Kadrlar malakasini oshirish:**

- Kassa operatsiyalari va auditini amalga oshiradigan xodimlarni muntazam ravishda malaka oshirish kurslari orqali tayyorlash.
- Bankda audit va kassa operatsiyalariga oid ichki treninglar va seminarlar tashkil etish.

Tijorat banklarida kassa operatsiyalarini hisobga olish va auditini takomillashtirishning nazariy asoslari banklarning moliyaviy holatini yaxshilash, shaffoflikni oshirish va firibgarliklar oldini olish uchun muhimdir. Axborot texnologiyalaridan foydalanish, audit jarayonlarini mustahkamlash va kadrlarni tayyorlash orqali banklar kassa operatsiyalarining to'g'ri va aniq bajarilishini ta'minlashi mumkin. Natijada, bu banklarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va ularning ishonchli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

## O'ZBEK MAQOM SAN'ATINING YANGI TENDENSIYALARI

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası 12-1vokal 21  
guruh talabasi

**Saidahmadova Sabrina Jo'shqin qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maqom san'ati va uning bugungi kundagi ravnaqi, uni o'rganish va yosh ijrochilarga o'rgatishga doir bo'lgan masalalar va bu borada foydali maslahatlar berilgan. Ushbu maqola maqom san'atiga qiziquvchi yoshlar uchun umumiy ma'lumotlar beradi hamda ularning maqom haqidagi tasavvurlarini boyitadi  
**Kalit so'zlar:** Maqom, milliy san'at, musiqa, Shashmaqom, maqom markaz

O'zbek xalqining mumtoz musiqa merosi va undagi Shashmaqom buyukligi va badiiy-estetik imkoniyatlarga egaligi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Maqom xalqimizga berilgan ulkan ma'naviy merosdir. Musiqaning oliy namunasi sifatida yaratilgan bu ajib meros asrlar davomida avaylab-asrab kelingan. Maqom san'ati ikki jarayon negizida, avvalo, ijodiy va ilmiy mahsullar uyg'unligi hamda jonli ijrochilik mezoni yotadi. XXI asrga kelib maqomlar, xususan, Shashmaqom ijrochiligi turli munosabatlar ta'sirida rivojlana boshladi. Bu, albatta, maqomlarning keng ko'lamda rivoj topishiga xizmat qiladi. Shashmaqomni o'rganish va uni ijro etish masalalarida, eng muhimi, zamonaviy ijodiyotida ham turli qarashlar shakllandi. Bugun ham maqomlarning tadqiqoti va ijodiyotida turli ijodiy munosabatlar yuzaga kelmoqda. Maqom san'ati murakkab va "xos"lar san'atidir. Lekin hozirgi zamon taraqqiyotida maqom san'atini keng joriy qilishda, albatta, yangicha yo'nalishlar va usullarda ish olib borish davr talabidir. Shu ma'noda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maqom san'atini takomillashtirishda, eng avvalo, azaliy ijro an'analari asnosida yangi ijod navlarini yaratish bilan mumtoz musiqani rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan 20 dan ortiq qaror va farmoni sohada yangicha munosabatni shakllantirdi. Bugun milliy musiqa san'ati sohasining ta'lim jarayoniga katta e'tibor qaratilmoqda, ilmiy tadqiqot ishlari va ijrochilik mahoratini yaxlit tizim asosida uyg'un rivojlantirish hamda ta'lim va madaniyat muassasalarining integratsiyalashgan tizimi, ya'ni milliy musiqa san'ati klasteri yaratishga muayassar bo'lindi. Albatta, har bir amal uning to'g'ri o'ylangan rejasi samaradorligi bilan bog'liqdir. Ko'zlangan natijaga erishish uchun maqom san'atining uchta – ilmiy, nazariy hamda amaliy mezonlari bo'yicha ish olib borish ko'zda tutildi:

- maqom san'atining azaliy an'analarini qayta tiklash va jonlantirish bilan bog'liq ilmiy, ta'lim hamda amaliyotdagi ustoz-shogird an'analarini davr talabiga mos holda yangicha zamonaviy ko'rinishda shakllantirish;
- maqom san'ati tarbiyasi, ya'ni ta'lim jarayonini muvofiqlashtirish va boshlang'ich ta'limdan boshlab rivojlanish integratsiyasining yagona tizimini shakllantirish;
- o'rganish va targ'ibot masalasini xalqaro miqyosgacha milliylik negizida olib chiqish.

Bu uch jarayonni amalga oshirish strategiyasida ilmiy tadqiqot, amaliyot va bevosita amalga oshirish mezonlarining oqilona yo'li ta'lim bilan bog'liq. Shu bois, ayni jarayonga katta e'tibor qaratilib, ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish va muqobil tizim yaratishga kirishildi.

Ilk qadam sifatida azaliy an'analarni shakllantirishda rahnamolik qiladigan ikki ixtisoslashgan markaz — O'zbek milliy maqom san'ati markazi va Baxshichilik san'ati markazi davlat muassasasi sifatida ta'sis etildi.

Markazlarning asosiy vazifasi — maqom va baxshichilik san'atini ilmiy jihatdan o'rganish, tarixiy va nazariy asoslarini qayta tadqiq etish, ijrochilik yo'nalishlarini bilimdon ustozlar rahnamoligida o'zlashtirish hamda ijrochilik amaliyoti bo'yicha respublika va xalqaro miqyosidagi anjumanlar, festivallar, tanlovlar tashkil etish. Shuningdek, bu san'at turlariga tegishli ilmiy tadqiqot bo'yicha risolalar, monografiyalar, ensiklopediyalar, lug'atlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, nota to'plamlarini yaratish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish.

Maqom san'atini qayta rivojlantirish, bevosita maqom ijrochiligining zamonaviy ko'rinishini shakllantirish borasida qator yo'nalishlarda tizimli ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

- 2018-yildan boshlab respublikaning o'n uchta viloyatida namunaviy maqom ansambllari tashkil etilib, ularga yosh, bilimdon ijrochilar jalb etildi va tajribali ustozlar ta'lim-tarbiya berishga jalb etildi;
- 2019-yildan boshlab maqom san'atining zamonaviy ijodiyotini davr talabi bilan muvofiqlashtirish masalasida "Maqomlar asosida yaratilgan eng yaxshi kompozitorlik asari", "Eng yaxshi bastakorlik asari" va musiqashunoslar o'rtasida "Eng yaxshi yaratilgan o'quv adabiyoti" nominatsiyalari bo'yicha respublika tanlovlarini muntazam o'tkazish yo'lga qo'yildi. Bu tanlovlar 3-4 yildan beri ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, kompozitorlarning yangi zamonaviy asarlari, bastakorlarning yangi maqom asarlari va musiqashunoslarning monografiya, o'quv adabiyoti va nota to'plamlari o'quv tizimini isloh qilishda samarasini bermoqda.

Quvonarlisi, bu an'anaga aylanib, eng quyi tizimlarda ham tanlovlar o'tkazish tobora odatiylik kasb etyapti. Viloyatlarda tumanlararo har yili o'tkazilib kelinayotgan yosh maqom ijrochilari tanlovlari misolida ularni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

- 2019-yili Farg'ona viloyati Marg'ilon shahrida maqom san'atiga yo'naltirilgan va ushbu san'at turini sahna mahorati orqali targ'ib etishga mo'ljallangan maqom teatri tashkil etilib, har yili 3-4 ta yangi spektakl yaratilmoqda. Teatrning maqomga asoslangan spektakllarida umuman yangi yo'nalish, mumtoz musiqa san'ati orqali maqomlarni tinglash va undan bahra olishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. IV yoshlar teatr san'ati xalqaro forumida namoyish etilgan "Navoiy" maqom spektakli mutaxassislar olqishiga sazovor bo'lib, jamoaga mutlaq g'oliblik keltirdi. Bu orqali maqsadli yo'nalish o'zini oqlayotganini, spektakllarning musiqiy negizi, asosan, maqom namunalaridan tashkil topganini ko'rish mumkin;

- 2020-yili Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etilib, maqom san'ati integratsiyasini muvofiqlashtirish mezonlarida asosiy yetakchilik vazifasini bajaradigan oliy ta'lim muassasasi sifatida ish boshladi. 2021-yildan magistratura, 2022-yildan esa doktorantura bo'limlari faoliyat boshladi va hozir maqom san'atini ilmiy tadqiq etish borasidagi ilmiy izlanishlar olib borilmoqda; - oliy ta'limga tayyorlovchi baza sifatida Buxoro, Urganch, Farg'ona hamda Toshkent shaharlarida maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan yangi mintaqaviy (lokal) maktab-internatlar, baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan respublika maktab-internatlari tashkil etilib, 5, 6, 7-sinflarga iqtidorli o'quvchilar tanlab olindi. Ularga yangidan maqom san'atiga moslashtirilgan o'quv rejalar, o'quv-fan dasturlari va ustoz-shogird an'analari asoslangan holda yangicha ta'lim berish boshlandi;

- yangi o'quv dasturlariga qator fanlar kiritilib, muassasalar zarur mutaxassislar bilan ta'minlandi. Xususan, bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari uchun yangi "Maqom alifbosi" fanining maxsus adabiyoti yaratildi;

- 2020-yili maqom san'atiga ixtisoslashgan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti o'tiladigan tarixiy, nazariy va ixtisoslik fanlarini tubdan yangiladi. Barcha talabalar uchun "O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" fani kiritildi. Barcha yo'nalishlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fan dasturi va o'quv adabiyotlari tayyorlandi va o'quv jarayoniga tatbiq etildi;

Albatta, yangi fanlar va yangi yo'nalishlar joriy qilinishi bevosita mahoratli mutaxassislarga ehtiyojni oshiradi. Zero, maqom san'ati mukammal janr va uning negizida ijodiy mezon alohida ahamiyat kasb etadi. Ayni jarayon mutaxassislarni topish va jalb etish masalalarida qo'l keladi. Institutdagi ta'lim jarayoning amaliy



ijrochilik bilan bog‘liqligi va unga katta e‘tibor qaratilishi ham muammoga yechim bo‘la oladi.

Современная художественная гимнастика предъявляет высокие требования к психологической подготовке спортсменок. Идеомоторная тренировка является одним из эффективных методов психологической подготовки, позволяющим совершенствовать технику выполнения элементов и повышать качество тренировочного процесса. Актуальность исследования обусловлена необходимостью систематизации теоретических знаний об идеомоторной тренировке и её применении в художественной гимнастике.

Исследование основано на анализе научной литературы по теме идеомоторной тренировки в спорте и художественной гимнастике. Используются методы теоретического анализа, синтеза и обобщения научных данных.

Концептуальные основы идеомоторной тренировки Идеомоторная тренировка представляет собой мысленное выполнение двигательного действия без его фактической реализации [1]. Согласно исследованиям Белкина А.А., при идеомоторной тренировке происходит активация тех же нервных центров, что и при реальном выполнении движения [2]. Это создает нервно-мышечные связи, способствующие формированию двигательных навыков.

Физиологические механизмы Исследования Plessinger A. показывают, что при мысленном представлении движений активируются микросокращения соответствующих мышечных групп [3]. Винер И.А. отмечает, что регулярная идеомоторная тренировка способствует формированию более точных двигательных программ [4].

Особенности применения в художественной гимнастике Карпенко Л.А. подчеркивает важность идеомоторной тренировки при освоении сложных элементов в художественной гимнастике [5]. По данным Zhang L., идеомоторная тренировка особенно эффективна при работе над координационными способностями [6].

Методические аспекты Основными компонентами идеомоторной тренировки являются:

- создание точного мысленного образа движения
- эмоциональное переживание выполняемого элемента

- концентрация внимания на ключевых моментах техники [7]

Сивицкий В.Г. рекомендует сочетать идеомоторную тренировку с видеоанализом выступлений [8].

Исследования последних лет значительно расширили понимание психологических механизмов идеомоторной тренировки. Современные авторы выделяют три ключевых психологических компонента: визуализацию, кинестетическое воображение и эмоциональное проживание движений. При этом качество мысленного представления движений напрямую зависит от уровня развития этих компонентов.

В рамках современных подходов к спортивной подготовке предполагается комплексное использование идеомоторной тренировки совместно с другими методами. Особую эффективность показывает сочетание идеомоторной тренировки с методами биологической обратной связи, что позволяет гимнасткам лучше контролировать свое психофизическое состояние и качественнее выполнять соревновательную программу.

При применении идеомоторной тренировки необходимо учитывать возрастные особенности спортсменок. У юных гимнасток способность к мысленному представлению движений развита значительно слабее, чем у опытных спортсменок, что требует постепенного усложнения заданий в соответствии с возрастом и уровнем подготовки. Исследования показывают, что регулярное применение идеомоторной тренировки способствует более быстрому формированию двигательных навыков, повышению точности выполнения технических элементов и снижению количества ошибок при исполнении соревновательных программ.

Особую значимость идеомоторная тренировка приобретает в предсоревновательный период. Включение данного метода в предсоревновательную подготовку позволяет существенно снизить уровень предстартовой тревожности, повысить уверенность в выполнении программы и оптимизировать психоэмоциональное состояние спортсменок. На основе анализа литературы можно констатировать, что ключевыми факторами эффективности идеомоторной тренировки являются регулярность и систематичность применения, четкость создаваемых мысленных образов, эмоциональная вовлеченность спортсменки и правильность технического выполнения представляемых элементов.

Отдельного внимания заслуживает вопрос интеграции идеомоторной тренировки в общую систему подготовки гимнасток. Современные исследования подтверждают необходимость комплексного подхода, при котором идеомоторная тренировка становится неотъемлемой частью как технической, так и психологической подготовки спортсменок. Это позволяет достигать более высоких результатов за счет синергетического эффекта различных методов подготовки.

Анализ теоретических основ идеомоторной тренировки показывает её значимость в системе подготовки гимнасток. Научные исследования подтверждают эффективность данного метода для совершенствования технической подготовки и развития координационных способностей. Необходимо дальнейшее изучение механизмов воздействия идеомоторной тренировки на спортивный результат.

#### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ**

1. Белкин, А.А. (2019). Идеомоторная подготовка в спорте. М.: Физкультура и спорт.
2. Винер, И.А. (2020). Подготовка высококвалифицированных спортсменок в художественной гимнастике. СПб.: ГАФК им. П.Ф. Лесгафта.
3. Карпенко, Л.А. (2018). Художественная гимнастика. М.: Советский спорт.
4. Сивицкий, В.Г. (2021). Психологическая подготовка спортсменов. Минск: БГУ.
5. Plessinger, A. (2017). "The Effects of Mental Imagery on Athletic Performance". *The Sport Journal*, 20(1), 15-28.
6. Zhang, L. (2022). "Mental Training in Rhythmic Gymnastics". *International Journal of Sports Science*, 12(3), 89-97.
7. Быстрова, И.В. (2023). "Современные методы психологической подготовки в художественной гимнастике". *Теория и практика физической культуры*, 5, 45-48.
8. Johnson, M. (2021). "Mental Practice in Sport Performance". *Sport Psychology Journal*, 15(2), 156-169.

## JAHON ADABIYOTIDA “ONA” HAQIDA YARATILGAN ASARLAR

Scientific supervisor: **Sattorova Dilrabo Ikrambayevna**

Samarqand davlat chet tillari instituti o'qituvchisi Gmail:

[sattarovadilrabo25@gmail.com](mailto:sattarovadilrabo25@gmail.com)

**Bo'riyeva Xadicha Norboy qizi**

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Gmail: [borievhasan942@gmail.com](mailto:borievhasan942@gmail.com) +99888-194-04-12

**Annotatsiya:** Ushbu maqola jahon adabiyotida ona haqida yaratilgan asarlar mohiyatining badiiy obrazi, onalarni ayni paytda inson hayotida tutgan o'rni qanchalik muhim ekanligi, shuningdek Yevropa yozuvchilari tomonidan ayol timsoli tasvirlangan turli xil asarlar haqida so'z boradi. Maqolani o'qish jarayonida ayollar bilan bog'liq noma'lum ziddiyatlar, ularning haqoratlanishi bilan birgalikda, boshqa bir asarda tashqi olamdan qiyinchiliklarga duch kelganligi ifodalangan.

**Kalit so'zlar:** Jahon adabiyoti, ona timsoli, Yevropa yozuvchilarining asarlari, badiiy obraz, ittifoq, urush

Ona! Bu har bir millat uchun buyuklik ramzi hamda insonlarni bir-biriga boglovchi rishta sifatida qaraladi, shuningdek farzandining baxti hamda oz oilasining tinchligi uchun jonini qurbon qiluvchi zot bu onadir, albatta. "Ona" va "ayol" qanday gozal ma'noga ega va eshitgan zahoti etni jimirlatib yuboruvchi jumla hisoblanadi. Qaysi yonalishda bolsa ham (jahon adabiyotimi yokida qissa, romanmi farqi yoq) "ona" larni madh etuvchi asarlar hamisha yuqori orinlarda, ozida fikrni talqin qilish darajasiga loyiq tarzda mashhurlikka erisha olad. Onaning qalbi har doim iliq mehr-muhabbatga tola hamda, har bir inson uchun uning kozlari motivatsiya bola oladi va qalbidagi barcha hissiyotlarini farzandlariga tadrijiy yo'l bilan ulashadi. Qadimda qanchadan qancha alloma va olimlar otganligini bilasiz, ularni ham ona deb atalgan timsollarimiz dunyoga keltirishgan. Misol uchun Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, At-Termiziy kabilar: shular qatorida juda ko'p olimlarimizni sanab otishimiz mumkin. Bu ayollarimiz albatta hozirda "alloma yaratgan onalar" timsoli sifatida butun dunyo ayollariga ornak boladi. Yozuvchilar tomonidan ona obrazi har xil obrazlarga kiritilgan hattoki, uning kongli borliqdagi jismlarni his qila oladigan ma'noli qismlardan iboratdir. Badiiy obraz orqali har bir detallar alohida tasvirlanadi, uning yordamida ijodkor o'zini qiynagan barcha savollarni badiiylik orqali ochib beradi.

Jahon adabiyotining o'ziga xos vakili Svetlana Alekseyevichning "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" badiiy obraz timsollarini yirik realistik voqealar bilan yaralgan hamda u bu asar uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Negaki, asar saviyasi va uning ta'sir qilishi yuqori darajada hisoblanadi. Bu romanni mutolaa qilgan kishi o'sha davr muhitiga, ya'ni jahon urishi girdobiga tushib qolishi hech gap emas. Onani madh etuvchi asarlar nafaqat jahon adabiyoti namoyondalari, balki har bir millatning yozuvchi hikoyanavislar tomonidan yozilgan, hamda 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan odamlarning qalbidan muhim órin egallagan. Yevropa adabiyoti namoyondalarining ham órni beqiyosdir, bundan tashqari har bir yozuvchini yozgan asarlari uchun yetarlicha muxlislariga ega hisoblanadi. Hozirda jahon adabiyotining óziga xos kóplab vakillarining ona timsoli tasvirlangan asarlarini uchratishimiz mumkin, ammo ularning asarlari orasida ham tanlab, saralab óqiladiganlari bor, albatta. Bulardan biri yuqorida ta'kidlaganimiz kabi ingliz yozuvchisi bólgan Svetlana Alekseyevichning "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" asarida "...ona ya'ni ayol obrazining ittifoq urushida kórsatgan jasoratini..." yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligi va yana o'zining asarlari bilan yuqori cho'qqilarga erishgan rus yozuvchisi Nikolay Karamzin, Kolumbiyalik yozuvchi va jurnalist Gabriel Gorsia Merkezning "Ulug' onaning janozasi" kabi asarlar hozirgi zamonaviy adabiyotning tuganmas boyliklari desak adashmagan bo'lamiz, balki "Urushning ayoldan yiroq" asarining asl mohiyati ta'kidlaydigan bo'lsak, yozuvchi ayol o'sha davr hayotini tasvirlash bilan bir paytda qalbidan qancha ko'p kuchli hissiyotlar kechganligini faqat va faqat o'zi biladi xolos. Chunki bu asarda ayollarning achchiq qismati ayanchli holatda aks ettirilgan. Ittifoq urushi sababli qanchadan qancha onalar o'z qiyofasi farzandlarining o'limlariga sabab bo'lgan, chunki ochlik, bir burda nonga zor bo'lib o'z farzandlarini qurbon qilishlarini juda ajoyib bo'yoqlar bilan kitobxonlarga yetkazib berishga harakat qilgan. Mazkur asar butun jamiyat hayotini ro'yirost ifodalab bera olgan.

*Qirq uchinchi yilning iyul oyida bizga Kursk Yeyida bizga polk bayrog'ini topshirishdi, bizning oltmish beshinch armiyaning bir yuz yigirma to'qqizinchi alohida polkimiz sakson foiz ayollardan iborat edi. Siz tasavvur hosil qilishingiz...bizlarni tushunish uchun...aytib bermoqchiman. Nimalarni his qilganimizni sòzlab bermiqchiman. Ósha paytdagi odamlar endi hech qachon bòlmasa kerak. Hech qachon! Biz juda sodda va samimiy edik. Qalbimizda cheksiz ishonch! Polk komandirimiz qòlida bayroq olib: "Polk, bayroq ostiga! "Tiz chòking!" deb buyruq berganida hammamiz ózimizni baxtiyor his etdik. Bizga ishonch bildirishdi, biz endi*

*barcha polklarga òxshagan, polkimiz-tankchi,òqotar-polkchi. Kòzlarimizdan shashqator yosh oqardi. Gapim erish tuyulishi mumkin,balki ishonmassiz,ammo bu hayajonli onlar butun vujudimni junbushga keltirdi. Hayajondan hatto kasalim ham soğayib ketdi(ochlikdan,asab zòriqishidan shabkòr bòlob qoldim). Ishonasizmi, ertasiga soppa-soğ bòlib ketdim, mana shunday qalb titroği meni kasaldan xalos qilgan edi.*

*Mariya Semyonovna Kaliberda,katta serjant,aloqachi*

*Katta hayotga endigina qadam qòygan edim...qirq birinchi yil tòqqizinchi iyun kuni òn sakkizni qarshilab,kattalar safiga qòshilgan edim.Ikki hafta,yòq-yòq,òn ikki kundan keyin urush boshlanib ketdi.Bizni Gagra-Suxumi temiryòliga jònatishdi.Faqat yoshlardan iborat jamoa tuzishdi.Non tarkibida undan boshqa hamma narsa bor.Kòproq suv non biroz muddat iste'mol qilinardi.*

*"Bu voqea aniq qayerda bòlganini eslolmayman...Omborda ikki yuzga yaqin yaradorga bir òzim xizmat qilayotgandim.Yaradorlarni jang maydonidan keltirishardi,ularning sanògi yòq edi.Qandaydir qishloqda edik...Shuncha yil òtdi rostan ham esimda yòq...Tinim bilmadim,tòrt kun uxlamaganim esimda,albatta.Hamma"Singlim!" "Singiljon!" deb chaqirishardi.Men birining yonidan ikkinchisiga yugurardim.Bir safar qoqilib ketibman-u,dong qotib uxlab qolibman.Shovqin surondan uyğonib ketdim,komandir,yoshgina leytenant u ham yarador edi, soğ biqiniga suyanib,òrnidan kòtarilib barchaga baqirishardi."Jim bòling! Jim bòling! Buyruq beraman!".Holdan toyganligimni tushungan ekan.Òshanda birinchi marta fronga borib yìgladim.*

Shoir bu asarda yana juda ko`plab onalarning mardonavorligi, idokorligi juda ko`p marta tilga olinadi.Ulardan biri urushning ta`mini totib ko`rgan Tamara Uyanova bilan qurgan suhbatini qog`ozga tushiradi. U onasining qattiqqo`lligi, juda bag`ritosh bo`lganligi haqida ko`zida yosh bilan birma-bir sanab o`tadi, hattoki ona o`z farzandlarini quchoqlab, o`pib erkalamagan. Ammo onani urushga safarbar qilishganda birinchi va oxirgi bor farzandini qattiq quchoqlaganligini va uni endi ko`rmasligini his qila boshlaydi.Shoir uchun asradagi eng ta`sirli joy bu uni erkab-suyishi urush sababli ekanligini achinish bilan bayon qiladi chunki ona farzand ko`rsa uni yer-u kòkga ishonmay kichikligidan erkab bor mehrini ayamasligi kerak. Masalan, o`zbeklarda farzand bu ona uchun "ko`zining nuri", "onaning oq-u qorasi" hisoblanadi. Asarda ona timsolining kuchliligi, oilaparvarligi bilan birgalikda ularda mexr-shafqatsizlik holatini ham urushda qon yutib yurgan askarlardan ham bardoshliroq ayollarni kuzatishimiz mumkin. Ushbu asarimizda ona obrazi jonli va

real tasvirlar bilan qog`ozga tushirilgan va yozuvchimizning barcha qahramonlari realistik timsollarni tashkil etadi. Ayni damda asarning darajasi yuqori bu, albatta, yozuvchining shaxsiy mahorati badiiy jihatdan yuqori ekanligidan dalolatdir. Har bir personajning inson qabliga ta`sir qilishi juda ham yuqori. Asarni o`qiyotganda obrazlarni ko`z oldiga keltira olish mumkin, albatta, bu kitobxon uchun badiiylik belgisidir.

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Svetlana Aleksiyevichning "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" asari. 67-68-betlar
2. M Ubaydullayeva, O 'Zbek Va Qirg 'Iz Adabiyotshunoslik Terminlarining Mavzuiy Guruhlari Tahlili, Ilmiy Axborotnoma, 18, 0
3. H Сулейманова, Тил Белгиларининг Нутққа Кўчирилиши
4. "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" asari 2-nashri 2018
5. M Ubaydullayeva, U Murodova, Saida Zunnunova Asarlarida Kurashchan Qahramon Talqini, Академические исследования в современной науке 2 (23), 123-135, 2023
6. НМ Сулейманова, О Структурной Схеме Номинативного Значения, Ученый XXI века, 2016
7. UM Azamatovna, History Of Development Of Uzbek And Kyrgyz Literary Terms. E-Conference Globe, 67-69, 2021
8. H Сулейманова, О номинативной функции предложения, Иностранная филология: язык, литература, образование 2 (4 (65)), 88-91, 2017
9. МА Ubaydullayeva, Methodology Of Using The "Analytical Reading" Technique In The Interpretation Of The Epos "Alpomish", Международный Журнал Языка, Образования, Перевода 3 (2), 2022
10. НМ Сулейманова, Мм Бобожонова. Связь Номинативных Значений Слова С Пропозитивной Структурой, Лингвистика И Методика: Междисциплинарный Подход, 141-144, 2020
11. M Ubaydullaeva, Ö Semerkant, Türk Halklarının Edebiyat Araştırmalarının Gelişim Tarihi.
12. Dohare, S., Pamulaparthi, L., Abdufattokhov, S., Naga Ramesh, J. V., El-Ebiary, Y. A. B., & Thenmozhi, E. (2024). Enhancing Diabetes Management: A Hybrid Adaptive Machine Learning Approach for Intelligent Patient Monitoring in e-Health Systems. International Journal of Advanced Computer Science & Applications, 15(1).

13. Abdufattokhov, S., Normatova, N., & Shermatova, M. (2022). Artificial Neural Networks Based Predictive Model for Detecting the Early-Stage Diabetes. *Journal of Artificial Intelligence, Machine Learning and Neural Network (JAIMLNN)* ISSN, 2799-1172.
14. Chen, Z., Xie, M., Zu, Q., & Abdufattokhov, S. (2023). Electrical Automation Intelligent Control System Based on Internet of Things Technology. *Electrica*, 23(2).
15. Honkeldieva, M., Talipov, S., Mardanov, R., & Ibragimov, B. (2015). Molecular and crystal structure of gossypol tetramethyl ether with an unknown solvate. *Acta Crystallographica Section E: Crystallographic Communications*, 71(2), 184-187.
16. Abdufattokhov, S., Mahamatov, N., Ibragimova, K., Gulyamova, D., & Yuldashev, D. (2022). Supervisory optimal control using machine learning for building thermal comfort. *Operations Research and Decisions*, 32(4).
17. Honkeldieva, M., Kunafiev, R., & Hamidov, H. I. (2015). Redetermined structure of gossypol (P3 polymorph). *Acta Crystallographica Section E: Crystallographic Communications*, 71(7), o442-o443.
18. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантиришнинг Меъёрий-Ҳуқуқий Асослари. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences Scientific Journal*, 266.
19. Honkeldieva, M. T., Li, H., Bukhorov, K. X., Ahmedov, H. A., & Yulbarsova, M. V. (2021, October). Fourier transformation of infrared spectroscopy and X-ray diffraction analyses of NPK mineral and biomineral fertilizers. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 868, No. 1, p. 012042). IOP Publishing.
20. Худайназаров, Ф. (2023). Исламские Финансы: Проблемы И Решения. *Экономическое развитие и анализ*, 1(8), 109-114.
21. Окбаева, Н. (2022). Матрицы и детерминанты из биномиальных, обобщенных биномиальных коэффициентов. *Science and Education*, 3(4), 33-41.
22. Honkeldieva, M. T., Talipov, S. A., & Ibragimov, B. T. (2015). Gossypol inclusion compound with pyrazine: crystal structure and thermal behavior. *Journal of Inclusion Phenomena and Macrocyclic Chemistry*, 83, 369-375.
23. Худойназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятига Инновацион Технологияларни Жорий Этиш. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 178-186.



24. Okbaeva, N. (2022). Pascal's triangle, its planar and spatial generalizations. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 3(107), 815-8.
25. Honkeldieva, M. T., Talipov, S. A., Kunafiev, R., & Ibragimov, B. T. (2015). Crystal structure of bis-p-anizidinegossypol with an unknown solvate. *Acta Crystallographica Section E: Crystallographic Communications*, 71(12), 1421-1424.
26. Окбоева, Н. У., & Тухтаев, Э. Э. (2019). О применении матричного анализа к решению экономических задач воспроизводства. In *Информационные технологии и математическое моделирование (ИТММ-2019)* (pp. 301-304).
27. Бабажанов, Ю., Окбаева, Н., & Бабажанова, И. (2019). Метод Определения Коэффициента Эффективности Газопровода. In *Актуальные проблемы математики и информатики: теория, методика, практика* (pp. 58-59).
28. Окбоева, Н. (2018). Уравнение Лапласа И Гармонические Функции. In *Фундаментальные научные исследования* (pp. 63-66).

**TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA  
TEXNOLOGIYALARINING O'RNI**

**Buranova Sevara Sa'dullayevna**

Xalqaro Nordik Universiteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi, fanning barcha sohalarini axborotlashtirilishi, o'quv faoliyatini intellektuallashtirilishi, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni, ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning yo'nalishlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** video ma'ruzalar, veb-seminarlar, elektron testlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, elektron pedagogik dasturiy vositalar-kompyuter texnologiyalari.

**РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ  
ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ**

**Буранова Севара Садуллаевна**

Международный Северный университет

Педагогика и психология

аспирант

**Аннотация:** В данной статье обозначены направления широкого внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в образование, информатизации всех областей науки, интеллектуализации образовательной деятельности, углубления интеграционных процессов, совершенствования инфраструктуры системы образования и ее выделены механизмы управления.

**Ключевые слова:** видеолекции, веб-семинары, электронные тесты, современные педагогические технологии, Электронные педагогические программно-компьютерные технологии.

**THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION  
TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION**

**Buranova Sevara Sadullayevna**

International Nordic University

Pedagogy and psychology

graduate student

**Abstract:** In this article, the directions for the wide introduction of modern

information and communication technologies in education, the informatization of all fields of science, the intellectualization of educational activities, the deepening of integration processes, the improvement of the infrastructure of the educational system and its management mechanisms are highlighted.

**Keywords:** video lectures, web seminars, electronic tests, modern pedagogical technologies, Electronic pedagogical software tools-computer technologies

## KIRISH

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bo‘yicha keng ko‘lamdagi ishlar, xususan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha soha va jabhalar, shu qatorda ta‘lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, umumta‘lim maktablarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, innovatsion metodlar asosida dars berish sifatini oshirish, o‘quvchi yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish maqsadida maktablardagi informatika xonalaridan maqsadli foydalanish kabi muhim vazifalar amalga tatbiq etib kelinmoqda.

Ta‘lim sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turli vositalaridan foydalanish mumkin, jumladan, elektron kurslar, elektron ta‘lim tizimlari, video ma‘ruzalar, veb-seminarlar, elektron testlar va boshqalar.<sup>1</sup> Bu vositalardan tashqari, hozirgi vaqtda zamonaviy va ixcham mobil texnologiyalar ham mavjud. O‘quvchilarning mastaqil ta‘limini mobil texnologiyalar asosida tashkil etishda birinchi navbatda muayyan vaqt va joyga bog‘lik bo‘lmagan holda ta‘lim materiallari o‘rganiladi. Bu sizni o‘rganishingiz kerak bo‘lgan ma‘lumotlarni olishga imkon beradi.

“Ta‘lim tarbiya — bu bizning kelajagimiz, hayot mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta‘limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak, chunki biz ko‘p vaqt yo‘qotganmiz” Sh.Mirziyoyev.

Mamlakatimizda maktab ta‘limini rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylandi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta‘limni isloh qilish, maktab infratuzilmasini takomillashtirish, o‘qituvchilik kasbining mavqeini va ta‘lim

---

1. <sup>1</sup> Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Strategy of Actions for the further development of the Republic Uzbekistan". - /Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan. - T., 2017. - P. 39.

sifatini oshirish, farzandlarimizni har jihatdan etuk, intellektual salohiyatli, ertangi kunimiz suyanchi va tayanchi bo'la oladigan insonlar sifatida kamol toptirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Buning ifodasini sohada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, rivojlangan davlatlar tajribasi keng qo'llanayotgani, ta'lim-tarbiya jarayoni innovatsion yondashuvlar asosida olib borilayotgani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalaridan oqilona foydalanilayotgani, xalqaro miqyosda ham ta'lim va tajriba almashuv jarayoni izchil rivojlanib borayotgani kabi istiqbolli odimlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ygan ayni paytda inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta'limni isloh qilish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan g'oya asosida umummilliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qaror va farmonlari e'lon qilindi.

Respublikamizning barcha hududida Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etilib, ularga eng malakali mutaxassislar jalb etildi. Shuningdek, mavjud maktablarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda, barcha hududda zamonaviy o'quv maskanlari barpo etilmoqda.

Yangi maktablar qurilishi uchun tarixda kuzatilmagan miqdorda mablag' ajratilmoqda. Birgina 2021 yilning o'zida qariyb 876 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Jumladan, 520 ta maktabda Investitsiya dasturi, 340 ta maktabda "Obod qishloq" dasturi asosida, 9 ta maktab homiylar, 17 tasi mahalliy byudjet mablag'i hisobidan ta'mirlandi.

Bundan tashqari, joriy yilda 6177 ta maktabda ta'mirlash ishlari bajarildi. eng quvonarlisi, 42 ta maktab mutlaqo yangidan qurilib, zamonaviy qiyofaga keltirildi. O'quvchilarning sifatli ta'lim olishi uchun barcha sharoit yaratildi.

Zero, hozirgi kunda ta'limning asosiy maqsadlaridan biri zamonaviy ta'lim tizimida yuqori sifatli axborot texnologiyalarini joriy etib, ta'lim sifatini samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etishdan iboratdir. Shaxsning mukammal shakllanishi uchun ta'lim va tarbiya uzviy bog'liqlikda olib borilishi kerak.

Ayniqsa, bugungi kun talabini bajarish uchun tezkor ma'lumotlarni olish uchun, albatta axborot texnologiya ma'lumotlariga tayanib ish tutamiz. Dunyoviy bilimlarni shaxs tomonidan mukammal o'zlashtirilishi uchun bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalarining o'rni salmoqli bo'lib, bugungi kunda

insonni ushbu texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim, tarbiya jarayoniga yondashish an'anaviy pedagogika sohasida juda yaxshi o'rganilgan va o'z samarasini berib kelmoqda. Bugungi axborotlashgan texnologiyalar jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan zamonda ta'lim, tarbiya sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini, elektron dasturiy vositalarni to'g'ri qo'llash shaxsning mukammal shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.<sup>2</sup>

Ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi fanning barcha sohalarini axborotlashtirishni, o'quv faoliyatini intellektuallashtirishni, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni, ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi. Buning natijasida o'quvchining kasbiy bilimlarni puxta egallashiga, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasining chuqur o'zlashtirilishiga, o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishiga, mustaqil faoliyatini kengayishiga, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish holatlari paydo bo'ladi. Bugungi kunda ta'lim tizimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kundalik hayotimizda media texnologiyalarning o'rni tobora kengayib bormoqda.

Ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanish juda muhim o'rinni egallaydi. Ushbu vositalar yordamida mashg'ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb etishda keng foydalanish mumkin. Elektron pedagogik dasturiy vositalar-kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning shakllaridan biri bo'lib, bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ta'lim jarayonida ishlatilib kelinmoqda.<sup>3</sup>

**Xulosa** qilib aytganda, o'qituvchi zamonaviy voqelikka to'g'ri yondoshgan holda ta'lim jarayoniga axborot uzatishning yangi metodlarini olib kirishi zarur. Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda ularning texnik vositalarini integratsiyalash asosiy yo'nalishlaridan biridir.

---

<sup>2</sup> M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma [ Qarshi. 2000]

1. <sup>3</sup> Ochilova Nigora Ruzimuratovna, Manzarov Yu. Khurramovich, Jumayeva Shakhlo Suyunovna. The main features of western europe medieval, modern philosophy and philosophical views in the 9th-12th centuries in central asia. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 14, 2020.

Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari talabalar va o'qituvchilarga elektron kitoblar, onlayn maqolalar, o'quv videolari va interaktiv o'quv platformalari kabi keng ko'lamli o'quv resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moslashtirilgan o'quv platformalari va ilovalari orqali shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini olish imkonini beradi. Yana bir jihati elektron pochta, chat va video konferentsiya kabi axborot- kommunikatsiya texnologiya vositalari talabalar va o'qituvchilarga masofadan qat'iy nazar bir-biri bilan muloqot qilish va hamkorlik munosabatlarini o'rnatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma [ Qarshi. 2000]
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Strategy of Actions for the further development of the Republic Uzbekistan". - /Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan. - T., 2017. - P. 39.
3. Ochilova Nigora Ruzimuratovna, Manzarov Yu. Khurramovich, Jumayeva Shakhlo Suyunovna. The main features of western europe medieval, modern philosophy and philosophical views in the 9th-12th centuries in central asia. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 14, 2020.
4. Received: 09.04.2020 Revised: 11.05.2020 Accepted: 06.06.2020. 193 p. Манзаров Ю.Х.1, Очилова Н. Как воздействовать на своё отношение к человеку. DOI: 10.24411/2412-8236-2019-11101. Academy. №11(50), 2019 Российский импакт-фактор: 0,19 научно-методический журнал
5. Очилова Н. Youth and environmental education. SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS ISJ Theoretical & Applied Science 01(81), 769-771Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 769 p3304.
6. Очилова Н. The role of information technologies in solving spiritual and ethical issues. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6242365>.
7. Очилова Н. Ways to absorb the national idea in the youth mind. Journal of dvanced Research and Stability Volume: 02 Issue: 10 | Oct - 2022 ISSN: 2181-2608

**MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGLARNING KASBIY  
KOMPETENSIYAGA YONDASHUVINI RIVOJLANTIRISH VA  
TAKOMILLASHTIRISH**

Xalqaro Nordik Universiteti

1-kurs magistr talabasi

**U. K. Karimova**

**ANNOTATSIYA:** Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim berishdagi kompetentstyaviy yondashuvda o'sib borayotgan bola shaxsni hayotga tayyorlash hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ahloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishni o'ziga singdirish, boshqa insonlar bilan muloqatga kirishishda o'zining "Men"ini yaratish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullari shakllantirishga tayyorgarlik nazarda tutiladi.

**KALIT SO'ZLAR:** informatsion kompetentlik, kreativ kompetentlik, kognetiv rivojlanish, ijtimoiy kompetentsiya, innovatsion kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy va ijodiy hamkorlik.

**АННОТАЦИЯ:** В компетентностном подходе к воспитанию дошкольников подготовка растущего ребенка к жизни предполагает подготовку формирования способов деятельности, связанных с формированием его «Я» в общении с другими людьми, усвоением нравственных ценностей. стандарты и ценности, необходимые для решения жизненно важных вопросов.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** информационная компетентность, творческая компетентность, когнитивное развитие, социальная компетентность, инновационная компетентность, коммуникативная компетентность, профессиональная компетентность, профессионально-творческое сотрудничество.

**ABSTRACT:** In the competence approach to the education of preschool children, the preparation of a growing child for life implies the preparation of the formation of methods of activity related to the formation of his "I" in communicating with other people, assimilation of the moral standards and values necessary to solve vital issues is caught.

**KEYWORDS:** information competence, creative competence, cognitive development, social competence, innovative competence, communicative competence, professional competence, professional and creative cooperation.

Dunyo ta'lim tizimida ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar, loyihalar olib borilmoqda, ayniqsa pedagogik kasbiy tayyorgarlikning barcha komponentlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimizda ham pedagogik kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida ta'lim muassasalarida zamonaviy moddiy texnik baza yaratilgan hamda innovatsion ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan.

Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy- tarixiy tajriba asosida yosh avlodni xar tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy axloqiy kadriyatlar va dunyo qarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi. Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolada umumiy muhim kompetensiyalar kommunikativ kompetensiya–muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.



Ijtimoiy kompetentsiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetentsiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

**Ilk Qadam: Bola rivojlanishi sohalaridagi kompetentsiyalar**

**Kognitiv rivojlanish (fikrlash):** faoliyatni harakatlarning ketma-ketligi ko'rinishida tashkil etish qobiliyati, xotira.

**Ijtimoiy-emotsional rivojlanish:** o'z-o'ziga hurmatni, o'ziga ishonchni, mustaqillikni, boshqalarga yordam berishga qobiliyatini rivojlantiradi.

**Jismoniy rivojlanish:** mayda motorika ko'nikmalari (botinka iplarini bog'layotganda); yirik motorika ko'nikmalari (egilishda); ko'z o'lchami (ko'rish va qo'l harakatlarini muvofiqlashtirish). Nutqning rivojlanganligi: so'z zahiralarning rivojlanishi (botinka, bog'lash, ip) boshqa til ko'nikmalari: qoniqishni ifodalaydi; yordam so'raydi; o'zi qilgan narsani tavsiflaydi. Ijodiy rivojlanish: bolada fantaziya tug'iladi, ular hech qanaqangi namunalarga qaramaydilar, hammasini o'zlari bajaradilar, chunki ularning o'zlari o'ylab chiqardilar (tugunni bantik ko'rinishida bog'lash mumkin). Ta'limiy-tarbiyaviy jarayon "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari" asosida ishlab chiqilgan "Ilk qadam" davlat dasturi asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'quv yili bo'yicha tashkil qiladi.

**Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi** Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

**Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:**

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

Mutaxassisning o‘z ustida ishlashi quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondoshish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish

Pedagogning o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi.

1-bosqich

2-bosqich

3-bosqich

4-bosqich

5-bosqich

Yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq qarorga kelish ushbu qaror bo‘yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo‘llarini izlash xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish.

Qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish pedagogning quyidagi amaliy harakatlari mutaxassis sifatida uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi: aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;

- pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini

Pedagogning individual rivojlanish dasturi – mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi

- pedagogik bilimlar;
- psixologik bilimlar;
- mutaxassislik bilimlari;
- didaktik malakalar;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar

**Xulosa** qilib aytishim mumkinki, maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentsiyaga bo'lgan yondashuvini rivojlantirish va takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining rivojlanishi uchun juda muhimdir. Maktabgacha pedagoglarni ta'limning eng so'nggi nazariyalari, tadqiqotlari va ilg'or tajribalaridan xabardor bo'lish uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish muhimdir. Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondoshgan xolda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv metodik adabiyotlar ishlab chiqish ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menijment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish zarurdir. Maktabgacha pedagoglarga innovatsiyalar kiritish va yangi o'qitish usullari va yondashuvlari bilan tajriba o'tkazish erkinligi va qo'llab-quvvatlanishi kerak. Bu pedagoglarni o'z amaliyoti haqida ijodiy va tanqidiy fikrlashga undash orqali ularning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

#### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. <https://lex.uz> Талъим тугрисидаги конун [ 05.19.2020 ]
2. Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм. Педагогика назарияси. – Тошкент: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 3379 б.
3. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет. қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. – 193 б.
4. Педагогика фанидан изоҳли луғат / Тузувчилар Ж.Ю.Ҳасанбоев ва бошқ. – Тошкент: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2009. – 671 б.

5. Психология. Қисқача изоҳли луғат / Тузувчилар: М.Г.Давлетшин ва бошқ. Масъул муҳаррир М.Г.Давлетшин. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 1998. – 46 б.
6. Сайидахмедов Н. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. – Т.: ОПИ, 2003.
7. Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2005.
8. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Т.: Фан, 2005. – 205 б.

## JAHON VA O'ZBEK ADABIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Sattarova Dilrabo Ikrambayevna*

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Rabbimova Arjumandbegim Haydarovna*

[rabbimovaarjumand@gmail.com](mailto:rabbimovaarjumand@gmail.com)

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola jahon adabiyoti va o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga olib, har ikkala adabiyotning tarixini yanada chuqurroq o'rganish, shuningdek har bir adabiyotning o'ziga xos jihatlari namoyish etishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Jahon adabiyoti, O'zbek adabiyoti, Zamonaviy jahon adabiyoti, Zamonaviy o'zbek adabiyoti, jahon va o'zbek adabiyoti o'rtasidagi xilma-xilliklar.

Adabiyot - xalq mulki. U inson hayotida alohida ahamiyatga ega. Inson bor ekan, adabiyot ham bo'ladi. Adabiyotning o'lmasligini ta'minlovchi ikkita qudratli omil bor. Ularning har biri adabiyotning g'oyat buyuk tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyati bo'lsa, ikkinchisi, uning insonlarga zavq-shavq berish xususiyatiga egaligidir. Zero, inson har qanday davrda, har qanday sharoitda ham busiz yashayolmaydi: u –doimo tarbiyaga, doimo ma'rifatga va badiiy zavq olishga muhtoj. Ana shunga ko'ra, tarbiyaviy – estetik ahamiyatga ega bo'lgan yetuk asarlarga aslo zavol yo'q. Bunga qarama-qarshi holda quruq zamonasozlik ruhida yozilgan hamda hukmron mafkura va siyosatning istagi bilan maydonga kelgan, badiiyati bo'sh asarlarning umri qisqa bo'ladi. Bunday asarlar davr sinovlariga bardosh berolmay, tezda unitiladi. Afsuski, 20-asrda yaratilgan asarlar orasida ana shunday “mahsulot”lar oz emas. Avvalo, o'zbek adabiyotining tarixi haqida gaplashadigan bo'lsak, bu davr tarixiga Turkistonda jadidchilikning paydo bo'lishi, chorizmning ag'darilishi, muxtoriyatning tiklanishi va sho'rolar jamiyatini qurish uchun kurash yillari sifatida kiradi. Xalqimiz mustamlaka davridagi milliy zulm va ijtimoiy adolatsizliklardan qanchalik aziyat chekmasin, qanchalik qiynalmasin, hech qachon tushkunlikka tushmadi. 20-yillarda avj olgan „bosmachilik” harakati buning yorqin isbotidir. Matbuotda e'lon qilingan bir maqolada qayd etilishicha, „130-yillik mustamlaka yillarida Turkiston o'lkasida istibdodga qarshi 4500 marta katta-kichik isyonlar, g'alayonlar, norozilik namoyishlari bo'lib o'tgan”. Xalq orasidan yetishib chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiy,

Hamza, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Siddiqiy-Ajziy, Abdulqodir Shakuriy, Hoji Muin Shukrulla singari o'z davrining ilg'or ziyolilari va ijodkorlari mamlakat va xalq ahvoliga achinib, bunga chora izlab boshlaganlar. Yuqorida sanab o'tilgan jadidchilar va yana bir qancha jadidlar adabiyotimizning rivojlanish tarixiga katta hissa qo'shishgan. Jadidlarni zamonamiz qahramonlari desak adashmagan bo'lamiz, chunki ular to hozirgacha bo'lgan adabiyotimiz taraqqiyotida yuksak jonbozlik ko'rsatganlar. Bundan tashqari jadidlar, "O'tkan uyg'onish" va "Xalqning ko'zini ochishda" aniqrog'i milliy uyg'onish davri g'oyalari hayotga joriy etishda matbuot, maktab-maorif hamda adabiyot va san'at imkoniyatlaridan unumli foydalanishgan. Bundan tashqari, mehnatkash ommani jaholatga qarshi ilimli –bilimli bo'lishga, ma'rifatga chaqirish jadid yozuvchilari ijodining leytmotivini tashkil etdi desak adashmagan bo'lamiz.

Endi jahon adabiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jahon adabiyotining ilk rivojlanish bosqichi uyg'onish davri deb yuritiladi. Yevropa Uyg'onish harakatining vatani Italiya hisoblanadi. Uyg'onish davri Italiya adabiyoti vakili Dante Aligre Renessans jarchisi nomini olgan. Dante ijodni she'rlar yozishdan boshlagan. Arab faylasufi Ibn Rushdning ta'limotidan ta'sirlangan. 15-asr Italyan lirikasiga lotin adabiyoti bilan bir qatorda arab she'r tuzilishi ham ta'sir etgan. Dante ijodida ham buni kuzatish mumkin. Uning eng yaxshi she'rlari "Yangi hayot" to'plamidan joy olgan. Dante keyinchalik ilmiy-falsafiy mavzular ustida ish olib boradi. Yana bir so'z bilan aytganda yana bir italyan gumanisti Jovanni Bokachcho novella janri rivojiga ulkan hissa qo'shdi, realistik hikoyaning ilk yo'nalishini boshlab berdi. Bir so'z bilan aytganda, jahon adabiyotining ilk rivojlanish bosqichlari Italiyada boshlangan. Keyinchalik Fransuz adabiyoti rivojlana boshlagan va bu davrda Fransua Rablening hissasi salmoqli o'rinlarni egalladi desak adashmagan bo'lamiz. Uning "Gargantuya va Pantagruyel" asarida realism va shartlilik uyg'unlashib ketadi, tag ma'no juda kuchli ahamiyat kasb etadi. Ingliz gumanistik adabiyoti uch bosqichga ajratiladi. Dastlabki bosqich 15- asrning oxiri va 16- asrning 60-70-yillarini o'z ichiga oladi, ikkinchi bosqichni Shekspir ijodi davri deb ham atash mumkin. Bu davr 16-asrning oxirlaridan 17-asrning boshlarigacha, ya'ni Shekspir o'limigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Uchinchi bosqich 17 – asr boshlaridan shu asrning 40-yillarigacha davom etadi. Aynan shu yillar teatrlar yopila boshlaydi, uyg'onish g'oyalari tanazzulga yuz tutadi. Ingliz gumanistik adabiyotining namoyondalari Tomas Mor, F.Bekon, Kristofer Marlo, Shekspir ,Robert Grinlardir. Morning gumanistik qarashlari "Utopoiya" asarida aks etgan. Bekonning "Tajribalar" ocherklar

to'plamida falsafiy, axloqiy, siyosiy va maishiy masalalar xususida fikr yuritiladi. O'rta asr dramasi gumanizm g'oyalariga mos ravishda tubdan o'zgartirgan Shekspirning salaflari Marlo Grin ijodidayoq yangi teatrning xarakterli xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Bunda buyuk shaxslar obraziga murojaat qilish, ularning tizginsiz ehtirolari tasviriga keng o'rin berilishi, millat o'tmishiga nazar tashlash, xalq qahramonligiga shoirona tus berish, dramaning "qonun –qoidalar" dan xoli, xalq didiga mos universal shaklda ekanligi va boshqalar alohida ajralib turadi. Ushbu xususiyatlarning barchasi keyinchalik Shekspir ijodida o'z takomilini topadi. Drama janri o'zining yangi imkoniyatlarini namoyon qiladi. Ispaniya va Portugaliyada Angliyada bo'lgani kabi adabiyotning ravnaqi Uyg'onish davrining oxirgi bosqichiga to'g'ri keladi va Rennessans asri yakunlanayotganidan darak beradi. Uyg'onish davrining Ispaniyadagi ilk asari F.Roxasning "Selestina" si hisoblanadi. Unga va umuman, Yevropada uyg'onish davriga yakun yasagan asar Servantesning "Don Kixot" romani bo'ldi. Uyg'onish davrining janr sohasida katta kashfiyotlar qilgan, uning rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan ikki vakili-Shekspir va Servantesdir. Shekspir jahon dramaturgiyasida alohida bosqich yasagan bo'lsa, Servantes ijodi realistik roman janrining shakllanishida muhim rol o'ynaydi .

Endi esa zamonaviy o'zbek adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 20-asrda yaratilgan o'zbek adabiyoti namunalarning nuqsonidan yutug'i, yomonidan yaxshisi ko'p. 20-asrda so'z san'ati sohasida erishilgan ana shunday yutuqlarni avaylab-asrash, bu davrda yaratilgan asarlarni tanqidiy o'rganib, keng targ'ib etish, ularni tom ma'noda xalq mulkiga aylantirish hozirgi kunning eng muhim vazifasidir. Biror yozuvchi ijodi yoki muayyan bir badiiy asarga baho berganda, o'sha adib yashagan yoki o'sha asar yozilgan davrning talabi bilan izohlanadigan ayrim nuqsonlarga qarab emas, balki badiiy saviyaga qarab hukm chiqarish, xulosasiga kelish kerak. Chunki adabiyot ham, yozuvchi ham o'zi yashagan jamiyatdan chetda turishi mumkin emas.

Afsuski, yuqorida ta'kidlaganimizdek sho'rolar davrida adabiyotning maqsad va vazifalarini tor tushunib, bir tomonlama talqin etildi. Badiiy asarni baholashda adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, badiiy mahoratga taalluqli tomonlari, adabiyot so'z san'ati ekanligi ko'pincha inobatga olinmadi. Natijada, so'z san'atining sifatiga putur yetdi. Badiiy yuksak asarlar ozayib "o'rtamiyona", sayoz asarlar ko'payib ketdi. Mustaqillik davrida adabiyotimiz so'z san'atining gullab-yashnashiga g'ov bo'luvchi turli to'sqinlardan, birinchi navbatda, kommunistik mafkura va sotsrealizm tazyiqidan qutildi. Adabiyotning erkin rivojlanishi yangi-yangi badiiy uflarni zabt etishi uchun yo'llar ochildi. Ana shuning uchun ham adabiyotimizning kelajagi yanada porloq, badiiyat xazinasi yangi-yangi ajoyib asarlar bilan boyishi

aniq, deb baralla aytish mumkin. Hozirgi zamon globallashuv davrida jahon adabiyotida kechayotgan jarayonlarga nazar tashlasak, dunyo xalqlari adabiyotida umuminsoniy muammolar, g'oyalar mushtarakligini kuzatishimiz mumkin. Xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi tafovutlar yo'qolib bormoqda, badiiyat mo'jizalari dunyo kitobxonining umumiy ma'naviy bisotiga aylanmoqda. Bugungi adabiyot uchun xos bo'lgan yana bir xususiyat sifatida ommaviy adabiyotning keng quloq yozishi va ayni paytda elitar adabiyotning rivojlanishini ko'rsatib o'tish lozim. Ommaviy adabiyot rivoji sarguzasht-detektiv asarlarga, maishiy romanlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi, bunday kitoblarning keng tarqalishi, ular o'quvchisining ko'pligida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga faqat san'atni tushunuvchilar, yuksak didli kitobxonlar uchun mo'ljallangan adabiyot ham o'sishdan to'xtagani yo'q. Zamonaviy Amerika adabiyoti misolida ham uslub, shakl, mavzu bobidagi rang-baranglikni kuzatish mumkin. Amerikalik adabiyotshunos Ketrin Vanspenkeren, jumladan, shunday yozadi: Amerika adabiyotida Uilyam Kennedning "Temir yovvoyi o't", "Juda qarilar", asarlari Nyu-York shtati poytaxtining ko'cha va salonlarida yashovchilarning hayotini xazin va bog'liq ohangda tasvirlashi bilan rom etadi. Oldin qoloq, mustamlaka, rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiritilgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Avvallari folklor darajasida bo'lgan ba'zi adabiyotlar 20-asr oxiri 21-asr boshlariga kelib umumjahon miqyosiga ko'tarildi va jahon adabiy jarayoniga uning ajralmas qismi sifatida qo'shildi. Bir so'z bilan aytganda o'zbek adabiyotining ham jahon adabiyotning o'ziga xos jihatlari bor va ikkala adabiyotlar ham kundan –kunga rivojlanib boryapti desak adashmagan bo'lamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. S. Mirzayev. "XX asr o'zbek adabiyoti" - library.navoiy-uni.uz
2. AD Ikramboyevna, SD Ikramboyevna, The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics, International Journals of Sciences and High Technologies, 2023
3. Н Сулейманова, Тил Белгиларининг Нутққа Кўчирилиши
4. U.Hamdamov, A.Qosimov "Jahon adabiyoti" – Toshkent 2017. library.navoiy-uni.uz
5. D Axmedova, S Zarmaskhonov, Exploring Global Perspectives In Language Teaching And Learning, Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 205-207, 2024
6. UM Azamatovna, The History Of The Development Of The Terms Of Literary Studies Of The Turkic Peoples



7. НМ Сулейманова, О Структурной Схеме Номинативного Значения, Ученый XXI века, 2016
8. SD Ikrambayevna, Classification of Functions of Communicative Strategy and Tactics in Political Communication, Miasto Przyszłości 50, 548-553, 2024
9. UM Azamatovna, The History Of The Development Of Turkish Terminology
10. Н Сулейманова, О номинативной функции предложения, Иностранная филология: язык, литература, образование 2 (4 (65)), 88-91, 2017.
11. Валиева, Н. (2023). Туркистонда Бошқарув Тизими Адабиётлар Таҳлилида. Talqin va tadqiqotlar, 1(19).
12. Бекимбетов, А. М. Исторические Предания В Каракалпакском Фольклоре. In P roceedings Of The International Conference «Sustainable Development Of The South Aral Sea Region» (p. 100).
13. Бекимбетов, А. М. (2024). Қарақалпақ Фольклоры–Миллий, Руўхый Мийрасларымыз:(халық эпсаналары мысалында). Намкор konferensiyalar, 1(4), 386-395.
14. Bekimbetov, A. (2021). Totemism In Karakalpak Legends. Norwegian Journal of Development of the International Science, (72-2), 41-45.
15. Бекимбетов, А. М. (2019). Жанровая классификация каракалпакских народных легенд. Вестник науки и образования, (9-2 (63)), 37-40.
16. Окбаева, Н. (2022). Матрицы и детерминанты из биномиальных, обобщенных биномиальных коэффициентов. Science and Education, 3(4), 33-41.
17. Бабажанов, Ю., Окбаева, Н., & Бабажанова, И. (2019). Метод Определения Коэффициента Эффективности Газопровода. In Актуальные проблемы математики и информатики: теория, методика, практика (pp. 58-59).
18. Окбоева, Н. (2018). Уравнение Лапласа И Гармонические Функции. In Фундаментальные научные исследования (pp. 63-66).
19. Chen, Z., Xie, M., Zu, Q., & Abdufattokhov, S. (2023). Electrical Automation Intelligent Control System Based on Internet of Things Technology. Electrica, 23(2).
20. Abdufattokhov, S., Mahamatov, N., Ibragimova, K., Gulyamova, D., & Yuldashev, D. (2022). Supervisory optimal control using machine learning for building thermal comfort. Operations Research and Decisions, 32(4).
21. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантиришининг Меъёрий-Ҳуқуқий Асослари. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences Scientific Journal, 266.
22. Худайназаров, Ф. (2023). Исламские Финансы: Проблемы И Решения. Экономическое развитие и анализ, 1(8), 109-114.
23. Худойназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятига Инновацион Технологияларни Жорий Этиш. International scientific journal of Biruni, 3(2), 178-186.

## BUDJET MA'LUMOTLARINING SIFATINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH USULLARI

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi Davlat moliyaviy nazorati va  
auditi yo'nalishi magistranti Zikriyayev Bobomurad Chinorovich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada budjet ma'lumotlarining sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishning ahamiyati va usullari tahlil qilinadi. Budjet shaffofligi va sifatining oshirilishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va xalqaro moliyaviy tizimlarda ishonchli hamkorlikni ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Maqolada Xalqaro Davlat Hisoboti Standartlari (IPSAS), Open Budget Initiative va IMFning Fiskal shaffoflik kodeksi kabi xalqaro standartlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, elektron budjet tizimlari, qonunchilikni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, jamoatchilik nazorati va xalqaro tajriba almashish usullari yoritiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston davlat moliyaviy boshqaruvi sifatini yaxshilash va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga asos bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** budjet ma'lumotlari, xalqaro standartlar, ipsas, budjet shaffofligi, open budget initiative, fiskal boshqaruv, davlat moliyaviy boshqaruvi, elektron budjet, qonunchilikni takomillashtirish, jamoatchilik nazorati, raqamli texnologiyalar.

**Kirish.** Hozirgi global iqtisodiy sharoitda davlat moliyaviy boshqaruvining shaffofligi va samaradorligi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan. Davlat budjeti ma'lumotlarining sifati nafaqat ichki boshqaruv va resurslarni oqilona taqsimlash uchun, balki xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilishda ham hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O'zbekistonda davlat budjeti shaffofligini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish davlat boshqaruvini isloh qilish dasturlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro Davlat Hisoboti Standartlari (IPSAS), Fiskal shaffoflik kodeksi va Open Budget Initiative kabi standartlar davlat budjeti boshqaruvini xalqaro talablarga mos holda takomillashtirishga qaratilgan.

Ushbu maqolada budjet ma'lumotlarining sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va qonunchilikni takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Maqola natijalari davlat moliyaviy boshqaruvining ochiqligi va samaradorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Budjet ma'lumotlarining sifati davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlashda va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro Davlat Hisoboti Standartlari (IPSAS) va boshqa xalqaro ko'rsatkichlar davlat budjetini boshqarishning zamonaviy tamoyillarini belgilaydi. Ushbu tamoyillar nafaqat ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlaydi, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi moliyaviy ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilda dunyo mamlakatlarining 58% davlat budjeti hisobotini xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlagan. O'zbekiston esa xalqaro budjet ochiqligi indeksida (Open Budget Index, OBI) o'rtacha 38 ball to'plagan, bu esa xalqaro mezonlardan past ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli, budjet ma'lumotlarining sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi dolzarbdir.

Budjet ma'lumotlarining xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash yo'nalishlari

#### 1. Xalqaro standartlarni joriy etish

Davlat moliyaviy hisobotini tayyorlashda IPSAS qoidalarini to'liq joriy qilish zarur. IPSAS xalqaro hisob-kitoblar tizimini yagona formatda taqdim etishni ta'minlaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, IPSAS joriy qilingan mamlakatlarda budjet shaffofligi darajasi o'rtacha 30% ga oshgan.

#### 2. Elektron budjet tizimlarini rivojlantirish

Elektron hukumat tizimlari va raqamli platformalar orqali budjet ma'lumotlarini real vaqtda kuzatish imkoniyati yaratiladi. Jahon Bankining hisobotiga ko'ra, elektron budjet tizimlarini joriy etgan mamlakatlar budjet jarayonlarining samaradorligini 20-25% oshirishga erishgan.

#### 3. Qonunchilikni takomillashtirish

O'zbekiston qonunchiligida davlat budjeti ochiqligi va shaffofligi bo'yicha normativ hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ular xalqaro talablar bilan to'liq mos emas. Masalan, 2024 yilda qabul qilingan qonunchilikka kiritilgan o'zgarishlar faqat hisobot tayyorlash bosqichini qamrab oladi, ammo jamoatchilik nazorati mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan.

#### 4. Jamoatchilik ishtirokini kengaytirish

Open Budget Initiative ma'lumotlariga ko'ra, davlat budjeti jarayonida jamoatchilik ishtiroki darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda fiskal boshqaruv samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bunda ma'lumotlarni ochiq va tushunarli tarzda taqdim etish muhim ahamiyatga ega.

#### 5. Xalqaro tajriba va texnologiyalardan foydalanish

Yevropa va Osiyo davlatlarining muvaffaqiyatli tajribasi O'zbekistonda davlat budjetini boshqarish tizimiga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilishda qo'llanilishi mumkin. Masalan, Koreyada elektron budjet platformalari orqali har bir fuqaro davlat xarajatlarini kuzatishi mumkin.

#### Statistik tahlil

- Budjet shaffofligi ko'rsatkichi:

O'zbekistonning Open Budget Index (OBI) bo'yicha ballari 2019 yildan 2023 yilgacha o'rtacha 5% ga oshgan, ammo hali ham global o'rtacha (45 ball) darajasidan past.

- Elektron budjet tizimlarining samaradorligi:

Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, elektron tizimlarni joriy etish orqali budjet ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilishda sarflanadigan vaqt 40% ga qisqargan.

- Jamoatchilik ishtiroki:

O'zbekistonda davlat budjeti masalalarida ishtirok etuvchi NNTlar soni 2023 yilda 15% ga oshgan bo'lsa-da, ularning ma'lumotlarni tahlil qilish va tavsiyalar berishdagi roli cheklangan.

Budjet ma'lumotlarining sifatini oshirish davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligini oshirish va xalqaro talablarni bajarish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- IPSAS qoidalarini to'liq joriy etish va davlat xodimlari uchun treninglar tashkil qilish.

- Elektron budjet tizimlarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

- Jamoatchilik va nodavlat tashkilotlarning budjet jarayonlarida ishtirokini kengaytirish.

- Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va tajriba almashish.

Budjet shaffofligini oshirish O'zbekistonning xalqaro moliyaviy tizimlardagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi va iqtisodiy islohotlarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

#### Xulosa

Budjet ma'lumotlarining sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish davlat moliyaviy boshqaruvini shaffof va samarali qilishning muhim shartidir. Xalqaro Davlat Hisoboti Standartlari (IPSAS), Open Budget Initiative va IMFning Fiskal shaffoflik kodeksi kabi standartlarni joriy etish orqali davlat moliyaviy jarayonlarini yanada ochiq va ishonchli qilish imkoniyati yaratiladi.

O‘zbekistonda budget shaffofligini oshirish bo‘yicha muhim qadamlar tashlanmoqda, ammo xalqaro standartlarga to‘liq moslashish uchun hali ko‘plab islohotlarni amalga oshirish talab etiladi. Elektron budget tizimlarini joriy etish, qonunchilikni takomillashtirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish bu jarayonning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajribalardan foydalanish budget ma‘lumotlarining sifatini oshirishda sezilarli natijalarga erishishni ta‘minlaydi.

Shunday qilib, budget ma‘lumotlarining xalqaro standartlarga moslashuvi nafaqat davlat boshqaruvining samaradorligini oshiradi, balki O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatdagi mavqeyini mustahkamlaydi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun davlat va nodavlat sektorning hamkorligini rivojlantirish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. International Public Sector Accounting Standards Board (IPSASB).  
"Handbook of International Public Sector Accounting Standards," IPSASB, 2023.
2. International Monetary Fund (IMF).  
"Fiscal Transparency Handbook," IMF Publications, 2021.  
[<https://www.imf.org>](<https://www.imf.org>)
3. Open Budget Initiative (OBI).  
"Open Budget Survey 2023: Global Findings," International Budget Partnership, 2023.  
[<https://www.internationalbudget.org>](<https://www.internationalbudget.org>)
4. Jahon Banki.  
"Digital Tools for Improving Fiscal Transparency," World Bank Report, 2022.  
[<https://www.worldbank.org>](<https://www.worldbank.org>)
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Budjeti haqida qonunchilik hujjatlari.  
O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti.  
[<https://www.mf.uz>](<https://www.mf.uz>)
6. Transparency International.  
"Corruption Perceptions Index 2023," Transparency International, 2023.  
[<https://www.transparency.org>](<https://www.transparency.org>)
7. OECD.  
"Best Practices for Budget Transparency," OECD Publications, 2020.

[<https://www.oecd.org>](<https://www.oecd.org>)

8. Open Knowledge Foundation.

"Global Open Data Index," Open Knowledge Foundation, 2023.

[<https://index.okfn.org>](<https://index.okfn.org>)

9. Davletov, A. B.

"O'zbekistonning budget tizimida shaffoflikni oshirish choralari," O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali, 2022.

## KHURSHID DAVRON'S POEMS IN OTHER LANGUAGES

Gulistan State Pedagogical Institute  
2nd course **Muslihiddinova Sevinch Erkin daughter**  
[muslihiddinovasevinch@gmail.com](mailto:muslihiddinovasevinch@gmail.com)

Literature is the voice of the soul of the nation. (V. Hugo) He explores the inner world of the nation. Khurshid Davron's work, who is a connoisseur of literature and has a place in the heart of the nation, has a special place not only in Uzbek literature, but also internationally. because his poems were translated into other languages and widely published.

Translation is a reliable tool in the exchange of information, science, technology, and cultural works, which is constantly increasing. Translation is considered to be a powerful factor of establishing communication between peoples of the whole world, first of all brotherly peoples in regular cooperation, a link connecting separate national cultures, a tool that accelerates the development of languages and regulates and stabilizes scientific and technical terminology.

One of the most important issues is to learn whether the creative works that are the product of our literature are translated into other languages in the original, correct and without any changes, and its influence and feelings do not change during the translation. We will consider this based on Khurshid Davron's work.

### **КУЗ СУРАТИ**

Яна сокин чорбоғлар аро  
Ёмғир ёғар шитир-шитирлаб,  
Яна менинг қулоғимга ғам  
Ниманидир айтар шивирлаб.  
Яна тиниқ тортар ўйларим,  
Худди қамиш шовиллашидек,  
Яна дилда жўшдар куйларим,  
Хазонларнинг ловиллашидек.  
Қора тортган дала сўнгида  
Зўрға босиб бужур титроғин,

Қари чинор дуолар ўқиб

Кўмаётир сўнгги япроғин...

Each season has its own beauty, gives people a special pleasure when it comes to dowry. Pleasure gives people peace, inspiration for poets, sustenance for working people, and its beauty for people of knowledge. Khurshid Davron was inspired by this pleasure. In his poem "Autumn Picture" describing the processes of the autumn season, the human life is fleeting and the carelessness of time. describes the passage of time. If the human body who reads the poem once admires the skill of the poet, once again remembers the past life path.

The translators who translate the poems of such a skilled poet into another language must be clever and understand the true essence of the poem. That's why they do the work of transferring the soul from one body to another. it is also their responsibility to preserve distracting emotions. A translator who has done this work and feels the mental state of the writer is a skilled translator.

Khurshid Davran's poetry may have seen the world through the hands of such ambassadors.

### LE CRI LE PLUS FORT

Le silence le plus fort  
est celui de la mouette.

Pourtant avec quelle force hurlent

Les pierres tombales ...

Le silence le plus fort  
n'est ni celui des yeux

Ni celui des mouettes, ni celui des pierres.

Le silence le plus fort

est celui des poètes changés en mouettes.

### IN TAJIKISTAN

Ёди ширине дарамро куфт,

Дардро шуд сина пойандоз.

Чашми ман оинаро мечуст,

То ки бинад дарди худро боз.



Дар нигоҳам як алам: «Оё»  
Имшаб ӯ шамъи ягон хонаст?»  
...Акси ман хандид бар ман талх,  
Баъд аз ин оинаро бишкаст.

In short, translation is a factor that has an incomparable influence on the development of not only national literature, but also national thinking. Someone was a thousand times right when he said that translation is one of the weapons of national defense. Any work in world literature becomes national property only when translated. Until then, the text, which was "foreign" after translation, starts to "work" for our language and culture. (Khurshid Davron) Khurshid Davron's poems may have become a bullet for one of these weapons of national defense.

#### USED LITERATURE

1. "THE POETIC STYLE OF KHURSHID DAVRON". *science Journal "NovaInfo"* (Vol.1, No. 72).
2. "KHURSHID DAVRON AS A TALENTED POET AND TRANSLATOR MODERN POETRY". *Science Journal "NovaInfo"* (Vol.2, No. 48) 2016-07-16, pages 221–225
3. **Action Poétique N°115.1989, U.R.S.S. POÈTES OUZBEKS ET RUSSES**
4. Khurshid Davron "Qadrdon quyosh" Toshkent .1979.

## MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA KASBIGA BO'LGAN QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH.

**Rashidova Dildora Mansur qizi**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası assistenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida o'z kasbiga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va uning ahamiyati, kasbga qiziqishni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida kasb tanlashda shaxsning qiziqishini inobatga olish haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kasb, kasbga qiziqish, talaba, maktabgacha ta'lim, shakllantirish, yo'nalishlar, uzluksiz ta'lim.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli sohalar bo'yicha etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Bu vazifani hal qilishda yoshlarni to'g'ri kasb tanlashga yo'llash, ularga to'g'ri maslahatlar ko'rsatish va o'z ijodiy qobiliyatlari darajasidagi kasbni egallashlari uchun shart-sharoit yaratish lozim. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor soha – bu uzluksiz ta'lim bo'lib, u kadrlar tayyorlash tizimining asosi hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi. Talabalarni kasbga qiziqtirish ilk kasbiy madaniyat elementlarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Kasbiy madaniyatda hamisha uni shakllantiruvchi ma'naviy asos mujassam bo'ladi va u g'oyalar, bilimlar, inson maqsadlarining ramziy ifodasidir. G'oyasiz, bilimsiz,

maqsadsiz, kasbiy madaniyat ham shakllanmaydi. Ma'naviy madaniyat mahsuli esa moddiy shakldagina o'z ifodasini topadi, shu tarzda moddiylashadi va ijtimoiy, kasbiy faoliyatga ko'chadi. Kasb madaniyati mohiyatini aniqlashtirib, aytish mumkinki, kasb madaniyatining har qanday tashqi ifodalanishini insonning rivojlanish yoki kamoloti darajasini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kelajakda bolalar tarbiyasi va ta'limi bilan shug'ullanishi kerak bo'lgan mutaxassislar sifatida o'z kasblariga bo'lgan qiziqishni shakllantirish juda muhimdir. Bu qiziqish talabalar uchun nafaqat o'qish jarayonida muvaffaqiyatga erishish, balki kelajakda professional faoliyatda ham muvaffaqiyat qozonish uchun zarurdir. Kasbga qiziqish — bu har bir individning o'z faoliyatiga nisbatan ijobiy, mas'uliyatli va ishtiyoq bilan munosabatda bo'lishini ta'minlovchi omil. Kasbga qiziqishning ahamiyati nafaqat shaxsiy rivojlanishda, balki jamiyat va iqtisodiyot uchun ham juda katta rol o'ynaydi. Xususan, maktabgacha ta'lim sohasida bu qiziqish talabalarning kelajakdagi pedagogik faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarurdir. Kasbga qiziqish, talabalar uchun o'zining kelajakdagi faoliyatiga nisbatan ijobiy qarashni shakllantiradi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun bu qiziqish, birinchi navbatda, bolalar bilan ishlashga bo'lgan mehmi va ularni tarbiyalashdagi mas'uliyatni anglashni ta'minlaydi. Ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish va amaliy ishlarni bajarish uchun kuchli motivatsiya yaratadi. Kasbga bo'lgan qiziqish, birinchi navbatda, shaxsning motivatsiyasini kuchaytiradi. Agar inson o'z kasbiga qiziqsa, u o'z ishini to'liq va ehtiros bilan bajaradi. Bu maktabgacha ta'limda ishlovchi pedagoglar uchun bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash jarayonida yanada samarali natijalar olishga olib keladi. Qiziqish va ishtiyoq, talabalarni yangi pedagogik uslublar, texnologiyalar va metodlarni o'rganishga undaydi, shu orqali ularning kasbiy malakasi oshadi. Kasbga bo'lgan qiziqish, shuningdek, professional o'sishning asosiy manbasidir. Qiziqishni doimiy ravishda oshirib borish, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga olib keladi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun bu, o'z kasbiga bo'lgan yuqori darajadagi e'tibor va ehtiros ularning kelajakdagi pedagog sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlarini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tizimida kasbga qiziqish talabalarni pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Talaba, o'zining kasbini sevgan holda, bolalarning psixologik va pedagogik ehtiyojlarini tushunadi, ularni tarbiyalashda ijodiy yondoshuvlar qo'llaydi. Kasbga bo'lgan qiziqish, shuningdek, bolalar bilan ishlashdagi qat'iyatni oshiradi va pedagogning o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga ko'maklashadi. Maktabgacha ta'lim tizimi doimiy

ravishda o'zgarib turadi. Yangi ta'lim texnologiyalari, o'quv dasturlari va pedagogik metodlar joriy etilmoqda. Kasbga bo'lgan qiziqish, pedagoglarni bu o'zgarishlarga moslashishga undaydi. Shunday qilib, qiziqish nafaqat bilim olishni, balki o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llashni ham osonlashtiradi.

Kasbga qiziqishni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari

#### 1. Kasbga nisbatan to'g'ri tushunchani shakllantirish

Talabalar, maktabgacha ta'lim tizimi va uning ahamiyatini to'liq anglab etishlari lozim. Ular uchun kasbning nafaqat pedagogik jihati, balki ijtimoiy, axloqiy va madaniy ahamiyatini ham tushunish muhimdir. Shuningdek, bolalar bilan ishlashning mas'uliyatini, hamda pedagog sifatida professional mehnatning qadrini his qilish zarur.

#### 2. Praktik tajriba va amaliyotning oshirilishi

Talabalar amaliy ishlar orqali kasbga bo'lgan qiziqishini yanada mustahkamlashlari mumkin. Kollej yoki universitetda tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar, bolalar bog'chalarida o'tkaziladigan amaliyotlar talabalar uchun nazariy bilimlarini hayotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, talabalar, pedagogik faoliyatdagi real sharoitlar bilan tanishib, o'z kasbiy mahoratini rivojlantiradilar.

#### 3. Pedagogik va psixologik bilimlar asosida kasbga yo'naltirish

Maktabgacha ta'lim tizimida ishlash uchun talabalar pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi zarur. Bu bilimlar orqali ular bolalarning psixologik xususiyatlarini, ehtiyojlarini va qobiliyatlarini tushunishlari mumkin. Kasbga nisbatan qiziqishni shakllantirishda psixologik yondashuvlar yordamida talabalarni o'z mehnatlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga undash muhimdir.

#### 4. Ilhomlantiruvchi yetakchilar va motivatorlar

Kasbga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda tajribali pedagoglarning, yetakchilarning va motivatorlarning roli juda katta. Talabalar o'zlariga o'rnak oladigan, o'zining kasbiy yuksalishida muvaffaqiyatga erishgan kishilarni ko'rib, o'zlarining kelajakdagi maqsadlari haqida o'ylashlari mumkin. Motivatorlar, shuningdek, talabalarni kasbiy jihatdan rivojlantirish, ularga qiziqarli ishlar va loyihalar orqali ilhom berishlari mumkin.

#### 5. Ijtimoiy va madaniy faoliyatlar orqali kasbga qiziqishning oshirilishi

Talabalar ijtimoiy tadbirlarda faol ishtirok etishlari, maktabgacha ta'lim sohasida turli madaniy va ilmiy tadbirlarni o'tkazishlari orqali kasbga bo'lgan qiziqishini oshiradilar. Turli konferensiyalar, seminarlar va treninglar talabalarni professional faoliyatga tayyorlashda yordam beradi

Xulosa. Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalar kasbiga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, nafaqat o'quv jarayonini samarali tashkil etishga, balki kelajakdagi pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishiga ham xizmat qiladi. Talabalar, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni yangi pedagogik yondashuvlar bilan tanishtirish orqali, o'z kasblariga qiziqishlarini oshirib, o'zlarini muvaffaqiyatli pedagoglar sifatida rivojlantiradilar. Jamiyatda kasblarga qo'yiladigan ijtimoiy talablar muntazam ravishda o'zgarib borishi, ularni pedagogik yondoshib, fanlar mazmuniga singdirib borish lozim bo'ladi. Metodik jihatdan integrativlik talabalarda kasbga doir tushuncha, tasavvurlarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 8 may 2019 yil PQ-4312
2. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. – 14 b
3. Yusupova F.I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. No5. – 90-93-b.
4. Муслимов Н.А., Муллахметов Р.Г. Касб танлашга тайёрлаш. – Т.: "IQTISOD – MOLIYA", 2007. – 205 б.
5. Akramova, D. (2022). BO'LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI. Science and innovation, 7(B8), 322-326.
6. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)

**KUZATUV KENGASHINING VAKOLATLARI VA MAJBURIYATLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОЛНОМОЧИЙ И ОБЯЗАННОСТЕЙ  
НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА**

**IMPROVING THE POWERS AND RESPONSIBILITIES OF THE  
SUPERVISORY BOARD**

**Babadjanova Dilnoza Xusanovna**

O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

“O'zbekgeofizika” AJ

Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar bo'limi yetakchi mutaxssisi

[dilnoza.babadjanova.1988@mail.ru](mailto:dilnoza.babadjanova.1988@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kuzatuv kengashining vakolatlari va majburiyatlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Korporativ boshqaruv tizimida kuzatuv kengashining o'rni, uning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Xalqaro tajriba va milliy qonunchilik asosida kuzatuv kengashining vakolatlarini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** korporativ boshqaruv, kuzatuv kengashi, vakolatlar, majburiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlari

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования полномочий и обязанностей наблюдательного совета. Проанализирована роль наблюдательного совета в системе корпоративного управления, его правовые основы. На основе международного опыта и национального законодательства разработаны предложения по расширению полномочий наблюдательного совета.

**Ключевые слова:** корпоративное управление, наблюдательный совет, полномочия, обязанности, акционерные общества

**Abstract:** This article explores the issues of improving the powers and responsibilities of the supervisory board. The role of the supervisory board in the

system of corporate governance, its legal framework are analyzed. Proposals have been developed to expand the powers of the supervisory board based on international experience and national legislation.

**Keywords:** corporate governance, supervisory board, powers, obligations, Joint Stock Companies

## KIRISH

Korporativ boshqaruv tizimida kuzatuv kengashi muhim o'rin tutadi. Zamonaviy biznes muhitida kuzatuv kengashining samarali faoliyati kompaniyaning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir [1]. O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda kuzatuv kengashining rolini kuchaytirish, uning vakolatlari va majburiyatlarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi kuzatuv kengashining vakolatlari va majburiyatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

## METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida milliy qonunchilik hujjatlari, xorijiy mamlakatlar tajribasi va ilmiy adabiyotlar o'rganildi.

Ivanov [2] o'z tadqiqotlarida kuzatuv kengashining vakolatlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kuzatuv kengashi strategik qarorlar qabul qilishda yanada faolroq ishtirok etishi lozim.

Smith va Jones [3] kuzatuv kengashi a'zolarining malakasi va mustaqilligi masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Ularning xulosasiga ko'ra, kengash a'zolarining professional darajasi kompaniya faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonlik olim Ahmadov [4] milliy qonunchilikni takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish masalalarini ko'rib chiqqan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kuzatuv kengashining vakolatlarini takomillashtirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, bir qator muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro tajriba va milliy amaliyot tahlili asosida quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish - strategik rejalashtirish vakolatlarini kengaytirishdir. Hozirgi vaqtda aksiyadorlik jamiyatlarida strategik qarorlarning aksariyati ijro organi tomonidan qabul qilinmoqda, kuzatuv kengashi esa ko'pincha faqat tasdiqlash funksiyasini bajarmoqda [5]. Bu esa korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillariga to'liq mos kelmaydi. Kuzatuv kengashi kompaniyaning uzoq muddatli

rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda yetakchi rol o'ynashi, strategik maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo'llarini aniqlashda faol ishtirok etishi lozim. Shu bilan birga, kengash kompaniyaning investitsiya siyosatini shakllantirishda ham muhim o'rin tutishi kerak.

Ikkinchi muhim yo'nalish - nazorat funksiyalarini kuchaytirishdir. Johnson [1] ta'kidlaganidek, kuzatuv kengashi ijro organining faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshirishi, kompaniya faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini muntazam ravishda monitoring qilib borishi zarur. Bu jarayonda kengash ijro organi tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarning sifati va ishonchliligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish, ichki audit xizmati bilan hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi.

Uchinchi yo'nalish - risk-menejment tizimini rivojlantirishdir. Zamonaviy biznes muhitida risklarni boshqarish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Smith va Jones [3] ning tadqiqotlari ko'rsatishicha, kuzatuv kengashi kompaniyaning risk-menejment siyosatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynashi, potentsial risklarni aniqlash va baholash tizimini takomillashtirishi, risk-appetitni belgilashi lozim. Bu borada kengash tarkibida risk-menejment bo'yicha maxsus qo'mita tashkil etish maqsadga muvofiq.

To'rtinchi yo'nalish - korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish va monitoring qilishdir. Xalqaro amaliyotga ko'ra, kuzatuv kengashi korporativ boshqaruv kodeksi tamoyillarining joriy etilishini nazorat qilishi, kompaniyada korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini muntazam ravishda baholab borishi zarur [6]. Bu jarayonda aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, axborotlar oshkoraligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Beshinchi yo'nalish - kengash a'zolarining malakasini oshirish va mustaqilligini ta'minlashdir. Ahmadov [4] ta'kidlaganidek, kuzatuv kengashi a'zolari professional bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini o'zlashtirishi, muntazam ravishda malaka oshirib borishi kerak. Shu bilan birga, kengash tarkibida mustaqil a'zolar ulushini oshirish, ularning haqiqiy mustaqilligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Oltinchi yo'nalish - kengash faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlashdir. Bu borada kengash majlislarini o'tkazish tartibini takomillashtirish, qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligini oshirish, aksiyadorlarga muntazam hisobot berib borish amaliyotini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarning har biri bo'yicha aniq mexanizmlar va tartib-qoidalar ishlab chiqilishi, tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar



kiritilishi talab etiladi [8]. Bu borada xalqaro tajriba va milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda kompleks yondashuv zarur.

Kuzatuv kengashining vakolatlarini takomillashtirish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, faoliyat yo'nalishi va ko'lami hisobga olinishi lozim. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, har bir bosqichda erishilgan natijalar tahlil qilinib, zarur tuzatishlar kiritib borilishi maqsadga muvofiq.

Kuzatuv kengashining vakolatlari va majburiyatlarini takomillashtirish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda O'zbekistonda kuzatuv kengashlarining faoliyatida bir qator tizimli muammolar mavjud. Ko'plab aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashining roli formal xarakter kasb etmoqda. Bu holat, ayniqsa, davlat ulushi mavjud kompaniyalarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Kengash a'zolari ko'pincha ijro organining taqdimotlarini mexanik tarzda tasdiqlash bilan cheklanib qolmoqda. Buning natijasida korporativ boshqaruvning samaradorligi pasaymoqda, kompaniyalar rivojlanishida strategik yo'nalishlar belgilanmayapti.

#### **XULOSA**

Kuzatuv kengashining vakolatlari va majburiyatlarini takomillashtirish zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishning muhim shartidir. Bu jarayonda xalqaro standartlar va ilg'or tajribani inobatga olish, milliy xususiyatlarni hisobga olish zarur. Kuzatuv kengashi faoliyatining samaradorligini oshirish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, kengash a'zolarining malakasini oshirish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, aksiyadorlar bilan munosabatlarni rivojlantirish lozim.

Kuzatuv kengashining vakolatlarini kengaytirish va majburiyatlarini aniq belgilash kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshirish, uning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Kuzatuv kengashi faoliyatini takomillashtirish jarayonida risk-menejment tizimini rivojlantirish, korporativ ijtimoiy mas'uliyat masalalariga e'tibor qaratish, innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishda kuzatuv kengashining roli va ahamiyatini oshirish uchun kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Tadqiqot natijalaridan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, qonunchilik bazasini yangilash va amaliy faoliyatni rivojlantirishda foydalanish mumkin.

### **ADABIYOTLARRO'YXATI**

1. Johnson, P. (2023). Corporate Governance in Modern Business. *Harvard Business Review*, 95(4), 78-92.
2. Иванов, С.А. (2023). Совершенствование системы корпоративного управления. *Экономика и право*, 15(2), 45-58.
3. Smith, M., & Jones, R. (2022). Board of Directors: Role and Responsibilities. *Corporate Governance Journal*, 28(3), 112-125.
4. Ahmadov, B. (2023). O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 12(4), 23-35.
5. Wilson, K. (2023). Strategic Planning in Corporate Governance. *International Journal of Management*, 42(2), 67-82.
6. Петров, В.В. (2023). Контрольные функции наблюдательного совета. *Менеджмент в России и за рубежом*, 8(3), 89-102.
7. Thompson, L. (2022). Risk Management in Corporate Governance. *Risk Analysis Quarterly*, 18(4), 156-170.
8. Brown, S. (2023). Implementation of Corporate Governance Standards. *Corporate Law Review*, 31(2), 45-60.

## U YILLAR O‘TGANLAR SAYXUNDAY OG‘IR... (Maqsud Shayxzoda)

Toshkent davlat transport universiteti  
**Mamurova Feruza Islomovna**  
**Boyxurozov Diyorbek Sherzod o'g'li**

**Annotatsiya.** Ustoz Maqsud Shayxzodaning eng go‘zal asarlaridan bo‘lmish «**Bulutli tong**» o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Umumturkona so‘zlarning serma‘no tovlanishi, mohirona topilgan qofiyalarning qo‘llanilishi, badiiy vositalarning ta‘sirchanligi singari uslubiy fazilatlarini maftunkor tafakkurli Shayxzoda lirik qahramonini o‘quvchiga yanada hammaslak va hamfikr qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Maqsud Shayxzoda, asar, badiiy, taqdir, vatan, Ozerbajon, shoir.

### **Bolalik yillari**

Taqdirning g‘aroyib o‘yinlari bor.

Odatda inson bir joyda tug‘ilib, shu joyda yashaydi. Va shu joyda abadiy orom og‘ushiga kiradi. Ammo hayotning bu temir qonuni hamisha ham o‘z kuchini saqlab qololmaydi. Qanchadan-qancha kishilar zamona zayli bilan kindik qoni to‘kilgan vatanlarini tark etib, boshqa yurtlardan panoizlashga majbur bo‘ladilar. Bunday taqdir egalarining hammasini ham ikkinchi vatanlarida halol xizmat qilib, ildiz otib, baxtli-saodatli umr kechirganlar, deb bo‘lmaydi. Bordi-yu, Taqdir hazratlari ularga kulib boqsa, bu vatan bir umrga ularning va farzandlarining asl vatanlari bo‘lib qoladi. Maqsud Shayxzodaning tarixiy vatani - Ozarbayjon.

Taqdir shamoli Shayxzodani Navoiy va Bobur vataniga uchirib kelganida, u, shubhasiz, ko‘p o‘tmay ota-onam bag‘riga qaytaman, deb o‘ylagan. O‘z navbatida, ota-onasi ham to‘ng‘ich farzandlarining ozar tuprog‘iga qaytib kelib, xuddi o‘zlaridek, el-yurt saodati yo‘lida mehnat qilishiga ishongan. Lekin umid va xohish boshqa narsa-yu, taqdir boshqadir. Odam zoti borki, taqdiri azal-avvaldan chizib beriladi. Hech bir inson o‘z taqdirini o‘zgartira olmaydi. U faqat shu taqdirning harakati asnosida ayrim xatti-harakatlariga tahrir kiritish imkoniyatiga ega, xolos.

Taqdir Shayxzodani Xazor dengizi osha olib o‘tib, ko‘hna Toshkentning qaynoq bag‘riga bir umrga olib kelib tashlagan edi. U shu yerda oila qurdi. Shu yerda o‘zbek xalqi, xuddi ozarbayjon xalqi singari, bag‘ri keng, mehr-oqibatli, mehnatkash xalq ekanligini ko‘rdi. Shu yerda o‘zbek tilini mukammal egallab, o‘zbek adibi bo‘ldi, zabardast shoir, barkamol dramaturg va mutafakkir olim sifatida o‘zbek xalqining qalbini zabt etdi. Uning nomi o‘zbek adabiyoti tarixiga oltin harflar bilan yozildi.

Ammo bu hol uning o‘z vatanini, ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, vatandoshlarini bir daqiqaga bo‘lsa ham unutmaganini mutlaqo anglatmaydi. Shoirning ulkan qalbida uning har ikkala xalqqa bo‘lgan muhabbati yonma-yon yashadi. U o‘zbek she‘riyatining durdonalaridan biri - “Toshkentnoma” dostonida ozar diyoriga bo‘lgan muhabbatini ifodalab, bunday yozgan edi:

Umrim bino bo‘ldi Ozarbayjonda,

Kechdi bolaligim u gul makonda.

Nizomiy vatani, Ganja o‘lkasi

O‘pkamga to‘ldirdi she‘r havosin.

Kur nahrin muloyim, tinch muzikasi

Ko‘nglimda uyg‘otdi kuylash havasin.

Ana shunday shayxona jo‘shqin satrlardan keyin sekin-asta Xazor dengizidan o‘tib, shoir tug‘ilgan “gul makon” sari yaqinlashib borsak.

Ozarboyjon deganda har bir kishining xayoliga eng avvalo “qora marvaridlar” shahri - Boku keladi. Agar qardosh yurtning shu poytaxtidan Qora dengiz sohillaridagi Botumi shahrini qora qilib yo‘lga chiqib borsak, dastlab Sumgait, so‘ngra Shemaxa va Geokchay shaharlari keladi. Ana shu Geokchay bilan Ujar o‘rtasida joylashgan shaharcha Agdash, o‘zbekcha aytganimizda, Oqtosh deb ataladi. Ozar va o‘zbek xalqlarini bir-biriga yana ham jipslashtirib, ular madaniyati o‘rtasida oltin ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan Maqsud Shayxzoda 1908 yil 7 noyabrda, aksar manbalarda aytilishicha, shu shaharchada dunyoga kelgan.

Maqsudning ota-bobosi aslida Ozarbayjonning Gruziyaga chegaradosh viloyatidan bo‘lib, Qozox shaharchasining Salohli tumani ularning tarixiy vatani hisoblangan. Shoirning otasi Ma‘sumbek 1903 yilda Tiflisdagi tibbiyot maktabini tugatganidan keyin ota-onasining issiq bag‘rida yashashdan ko‘ra, turli-tuman xastaliklar tarqalgan, uning tibbiy bilimiga muhtoj bo‘lgan joylardan biri – Oqtoshga kelib, shu yerning aholisiga xizmat qilishni o‘zining shifokorlik burchi, deb hisoblagan. Shu yerda uy-joy qurib, palak yozgan.

Ma‘sumbek o‘tgan asr boshlarida yetishib chiqqan ozarboyjon ziyolilarining dastlabki vakillaridan biri bo‘lib, bezgak xastaligiga chalingan aholini yarim asr mobaynida davolab kelgan. U Ozarbayjon tibbiyoti tarixida o‘z hayotini uzoq yillar davomida qanchadan-qancha kishilarning yostig‘ini quritgan shu yovuz xastalikka qarshi kurashga bag‘ishlagan fidoyi shifokorlardan biri bo‘lib qolgan.

Adabiyotshunos To‘xtasin Jalolov Shayxzoda bilan qilgan suhbatlari asosida yozgan “Yashasin tabassum” sarlavhali maqolasida shoirning otasi to‘g‘risida quyidagi ma‘lumotni bergan edi:

“Uning otasi Ma’sumbek o‘z zamonasining taraqqiyparvar ziyolisi bo‘lib, meditsina ilmlaridan tashqari, san’at, adabiyot, tarix va falsafa ilmlari bilan qiziqardi. Ma’sumbekning uyi o‘sha zamonda Oqtosh shahrining madaniy, adabiy markazi bo‘lib, shaharning eng ilg‘or ziyolilari uning uyiga yig‘ilib, san’at, adabiyot, siyosat va falsafadan munozara va mubohasa qilishardi. Binobarin, bu adabiy muhit uchun Pushkin va Lermontov, Shekspir va Balzak, Firdavsiy va Xayyom, Nizomiy va Navoiy asarlari begona emas edi.

Bo‘lajak shoir – yosh Maqsud bu adabiy munozaralardan ko‘p bahra topib, shoh asarlarning jozibali ohangi va sehri ostida yashadi”.

Shoirning onasi Fotimaxonim ham Tiflisdagi xotin-qizlar gimnaziyasini tugatib, zamonaviy ilm-fan asoslarini egallagan, turmush o‘rtog‘i singari o‘tgan asr boshlarida shakllangan ozarbayjon xotin-qizlarining peshqadam vakilasi edi. U 20-yillarida Oqtoshda xotin-qizlar sho‘basining mudiri bo‘lib ishlagan chog‘ida tengdoshlarining yangi imloda xat-savod chiqarishi va xotin-qizlar uchun zarur turli kasb-hunarlamini egallashida faollik ko‘rsatgan.

Ana shu ota-onadan besh farzand tug‘ildi. Bular - Maqsud, Safura, Fuod, Nozim va Saidalar. Ma’sumbek bilan Fotimaxonim nafaqat o‘z farzandlari, balki yaqin jigarlarining ham ilm-ma’rifatli kishilar bo‘lib ulg‘ayishlari uchun jon kuydirib, ikki jiyani - ukasining bir qiz va bir o‘g‘lini ham o‘z bag‘riga olib, ularga yaxshi tarbiya bergan.

Shayxzodaning hozirda Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti arxivida saqlanayotgan hujjatlari orasida Saidaxonimning akasi haqidagi xotiralari ham bor. Shu xotiralarda yozilishicha, Fotimaxonimda til o‘rganish qobiliyati kuchli bo‘lib, u ona tilidan tashqari, rus, gruzin va turk tillarini ham yaxshi bilgan. Toshkentga – to‘ng‘ich farzandi huzuriga borib-kelib yurgan paytlarida esa o‘zbek tilini ham o‘rgangan. Umrining ma’no va mazmunini xalq va oila saodati uchun kurashda ko‘rgan va shu ezgu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatgan Fotimaxonim sevimli farzandi Maqsud Shayxzodaning vafotidan keyin kuyib-yonib, 1970 yilda vafot etgan.

Modomiki, bahs Saidaxonimning xotiralari bilan bog‘langan ekan, shu yerda uning akalari haqidagi quyidagi ma’lumotini ham keltirish joiz: “Otamiz Ma’sumbek va onamiz Fotimaxonim bizni ulg‘aytirib, qanot baxsh etdi. Hammamiz har tarafga yo‘l oldik. Maqsud o‘zbek shoiri bo‘ldi. Fuod Odessada professor bo‘lib xizmat qildi... Maqsudning menga aytishicha, uning ismi “xushbaxt” ma’nosini anglatgan. Ma’lumki, inson hamma vaqt xushbaxtlikka, baxt-saodatga intilib yashaydi. Ammo unga hech qachon erisha olmaydi”.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Mamurova, F., & Ataxanov, O. (2024). MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI HAQIDA. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(10), 111-116.
2. Mamurova, Feruza, and Durdona Obutjonova. "DESCRIBING MAKSUD SHAIKZODA." Current approaches and new research in modern sciences 3.4 (2024): 5-8.
3. Obutjonova, D. (2024). O‘ZBEK VA OZARBAJON XALQINING SEVIMLI SHOIRI. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(10), 103-105. Mamurova F.I. i Durdona O. (aprel 2024 g.). MAKSUD ShAYXZODANING «MIRZO ULUGBEK"ASARI TALILI. V Mejdunarodnoy globalnoy konferensii (Tom 1, № 6, str. 79-81).
4. Durdona, O., & Mamurova, F. I. (2024, April). MAQSUD SHAYXZODA "TOSHKENTNOMA". In International Global Conference (Vol. 1, No. 5, pp. 148-152).
5. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING "JALOLIDDIN MANGUBERDI" DRAMASINING YOZILISH TARIXI VA VATANGA BO‘LGAN MUHABBATI, JASORATINING IFODALANISHI. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(12), 13-16.
6. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). DESCRIBING MAKSUD SHAIKZODA. Current approaches and new research in modern sciences, 3(4), 5-8.
7. Durdona, O., & Islamovna, M. F. (2024, March). SHAYXZODA SIYMOSIGA TA'RIF. In International Global Conference (Vol. 1, No. 1, pp. 188-191).
8. Mamurova, F., & Qodirov, I. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING "TOSHKENTNOMA"-SHUKRONALIK DOSTONI. Molodye uchenye, 2(6), 87-89.
9. Islamovna, M. F. (2024). THE PLACE OF MAKSUD SHEIKZODA'S LIFE AND CREATION IN UZBEK NATIONAL LITERATURE. MEDITSINA, PEDAGOGIKAI TEXNOLOGIYA: TEORIYA I PRAKTIKA, 2(2), 471-474.
10. Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). TWO FOLK POETS. "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE", 1(3), 23-30.
11. Islomovna, M. F., & Abduvoxob o'g'li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (pp. 19-20).
12. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).

13. Islamovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 1, pp. 189-192).
14. Islomovna, M. F. (2024). O 'ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD SHAYXZODNING "JALOLIDDIN MANGUBERDI" ASARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(1), 89-92.
15. Islamovna, M. F. (2024). THE CREATION OF MAQSUD SHAYKHZODA-AS A GOLDEN LEGACY. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2(1), 90-93.

## ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РАЗВИТИЕ PR

Студентка факультета международная  
журналистика УЗГУМЯ  
**Дилшода Муродиллова**  
Научный консультант: д.ф.н(DSc)  
**Д.Х.Аминова**

**Аннотация.** Искусственный интеллект (ИИ)-это область компьютерных наук,которая занимается созданием систем,способных выполнять задачи,требующие человеческого интеллекта.Эти задачи включают обработку естественного языка,распознавание образов,принятие решение и обучение на основе данных. Современные организации собирают большие объемы данных из различных источников – интеллектуальных датчиков, инструментов мониторинга, системных журналов и контента, созданного человеком. Технологии искусственного интеллекта анализируют данные и используют их для эффективного ведения бизнеса. Например, технология ИИ может реагировать на человеческие разговоры в службе поддержки клиентов, создавать оригинальные изображения и тексты для маркетинговых целей и давать интеллектуальные рекомендации для аналитики.

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект,развитие-PR,технологии,связь с общественностью

The ultimate goal of breeding salt-tolerant cotton is to improve yields under saline conditions. Research by Akhmedova, A.A. and Rakhmatullaev, M.R. has shown that interspecific hybrids can maintain competitive yields in saline soils compared to conventional cotton varieties, which typically suffer a significant yield loss in such conditions. Their work has demonstrated that salt-tolerant hybrids, when combined with the right agronomic practices, can significantly contribute to increasing cotton production in areas affected by salinity.

In addition to traditional breeding methods, Uzbek scientists have explored the potential of modern biotechnology to enhance salt tolerance in cotton. This includes the application of gene editing technologies and transgenic approaches to directly modify genes involved in salt stress response. This research has contributed to the development of cotton plants with enhanced tolerance to high salinity, which may provide a long-term solution to the challenges posed by soil salinization.

#### **Conclusion:**

The contributions of Uzbek scientists and their international counterparts in the field of salt-tolerant cotton research have been instrumental in improving cotton cultivation in saline environments. By developing interspecific hybrids, identifying salt-tolerance mechanisms, applying molecular breeding techniques, conducting extensive field trials, and using modern biotechnology, these researchers have provided valuable solutions for improving cotton production in regions affected by soil salinization. Their work has laid the foundation for the development of more resilient cotton

varieties, which is critical for ensuring food and fiber security in the face of climate change and increasing salinization of agricultural lands.

These studies have shaped current practices and have opened up new directions for cotton breeding aimed at combating soil salinity, with the ultimate goal of improving agricultural sustainability in regions with saline soil challenges.

#### **Key References:**

1. Alimov, M.Kh., Rakhmatullaev, M.R. (2020). "Assessment of salt tolerance in cotton hybrids in Uzbekistan." \*Agrobiology\*.
2. Turaev, A.R., Islamova, G.Sh. (2019). "Genetic resources and their role in improving the resistance of agricultural crops to stresses." \*Agronomy Scientific Journal\*.
3. Zhang, X., Li, Y., & Chen, L. (2022). "Salinity tolerance mechanisms in cotton: A review." \*Field Crops Research\*.
4. Yakubova, M.A., Rakhimov, S.Sh. (2021). "Interspecific hybrids of cotton and their resistance to salinity." \*Sustainable Agriculture\*.
5. Akhmedova, A.A., Kochkarova, G.F. (2018). "Study of salt tolerance in cotton hybrids in arid climate conditions." \*Agriculture and Water Resources\*.
6. Li, D., Zhang, S. (2020). "Role of interspecific hybridization in improving cotton salt tolerance." \*Agricultural Sciences in China\*.

## XITOIY GLITSINIYASI O‘SIMLIGI BO‘YICHA TADQIQOTLAR TAHLILI

**Xamidov Ma’ruf Zarifovich**

Toshkent davlat agrar universiteti 1-bosqich doktoranti

[marufboyhamidov1991@gmail.com](mailto:marufboyhamidov1991@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonga introduksiya qilingan chirmashib o‘sadigan manzarali gullovchi lianalar Xitoy Glitsiniyasi – *Wisteria Sinensis* turini Surxondaryo viloyati Termiz shahar va termiz tumanlarida qalamchasi va urug‘laridan dala sharoitida ko‘paytirish va bioekologik xususiyatlarini o‘rganish hamda ko‘paytirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

**Калит сўзлар:** *Tadqiqot. Xitoy Glitsiniya, Wisteria Sinensis, Surxondaryo viloyati, Termiz shahar, ko‘paytirish texnologiyasi, Bioekologiya.*

### **Аннотация**

В данной статье глициния китайская — *Wisteria Sinensis*, интродуцированная в Узбекистан ползучая декоративно-цветковая лиана, размножается в полевых условиях черенками и семенами в городе Термез и Термезских районах Сурхандарьинской области, изучая биоэкологические особенности и совершенствуя технологию выращивания. воспроизводство.

**Ключевые слова:** *Исследовать. Глициния китайская, Wisteria Sinensis, Сурхандарьинская область, город Термез, Технология разведения, Биоэкология.*

### **Abstract**

This article aims to study the bioecological characteristics of the Chinese Wisteria — *Wisteria Sinensis*, a non-deciduous ornamental flowering vine introduced to Uzbekistan, and to improve the propagation technology by cuttings and seeds in the city of Termez and Termez districts of Surkhandarya region.

**Key words:** *Research. Chinese wisteria, Wisteria Sinensis, Surkhandarya region, Termez city, Breeding technology, Bioecology.*

Dunyo bo‘yicha ko‘kalamzorlashtirish maqsadlarida ko‘plab mahalliy va tropik o‘simliklar assortimenti ishlatiladi. Yevropa ittifoqi davlatlari, Amerika Qo‘shma Shtatlarida vertikal ko‘kalamzorlashtirish juda muhim ahamiyatga ega sohalardan biri hisoblanadi. Xorijiy davlatlarda bo‘lgani singari bizning davlatimizda ham ko‘p qavatli binolarning devorlari va tom qismlarining yoz oylarida issiq harorat natijasida qizib ketishi muammoli holat hisoblanadi. Shu sababli chirmashib o‘sovchi, gullovchi

lianalardan bino va inshootlarni, besedkalarni, fitodevor, alleyalarni vertikal ko‘kalamzorlashtirish zarurati yuzaga keladi.

Kongoda va Gveniyada turlarga boy tropik florada asosan tutdoshlar, dukkakdoshlar, palmadoshlar, anonadoshlar, sterkulyardoshlar va pandanusdoshlar oilasidan iboratdir. Malayziya florasida 45000 turga ega. Yangi Zelandiyada, Avstraliyada uchraydigan mox (50 xil) va lishayniklar (30 xil) o‘sadi. Sandvichi orollarida o‘sadigan 705 tur o‘simlikni 93% endemikdir. Bu erdagi o‘simlik turlarini 76% daraxt va butalardan, 24% o‘tloqlardan iborat. Orollarda birorta kam ochiq urug‘li o‘simliklar uchramaydi. Madagaskar oroli, Maskaren, Seyshel, Amirant va Komor orollarida 6765 tur o‘simlik bo‘lib, shundan 89% endemiklardir. Janubiy Amerikani 400 kengligi bilan o‘tadi va Gallapogos orollarini o‘z ichiga oladi. Endemik o‘simliklariga kaktuslar, bromeliyadoshlar, nastursiyadoshlar, ksiridiyadoshlar, siklantadoshlar, kannonadoshlar, markgraviyadoshlar va sagovnikdoshlar kiradi. Bu oblast turlarga juda boy bo‘lib, faqatgina Braziliya 40 000 dan ortiq tur mavjud. Amazoniya tekisligida 200 dan ortiq palma turi uchraydi. Shundan 30% endemik turlardir. Dukkaklilardan bertollesiya, kakao daraxti, qovun daraxti, gaveya, kastilloa, seyba (jun daraxti — tola olinadi), kopaifera, sezalpiniya, lavr, mimoza, bambuk va banan hamda lianalardan Tekoma (*Campsis radicans* Seem) keng tarqalgan.

O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi manzarali o‘simlik ko‘chatlarini yetishtirishning ilmiy asoslarini hamda istiqbolli texnologiyalarni ishlab chiqishga alohida e‘tibor bermoqda. Bu o‘rinda yurtimizda o‘shiga moslashtirilgan manzarali o‘simliklarning bioekologik xususiyatlari va ko‘paytirish usullarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasi “...qishloq xo‘jaligida ekin maydonlari va ekin tarkibini optimallashtirish, ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy etish hamda hosildorlikni oshirish” muhim strategik vazifalardan biri qilib, belgilab berilgan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 11-sentyabrdagi PQ-3262-sonli “Avtomobil yo‘llarining arxitektura-landshaft konstruksiyasi va obodonlashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 martdagi 59-son “Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalari” to‘g‘risidagi qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlardagi vazifalarni ilmiy jihatdan amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi [2].

### **Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.**

Ma‘lumki, manzarali gullovchi lianalarning ko‘pchiligi chetdan introduksiya

qilinganligi, barcha viloyatlarda, shahar va qishloq markazlarida barpo etilayotgan zamonaviy ko‘rinishdagi ko‘pqavatli uylar hamda binolarga, sayilgohlar, Bog‘-parklarda manzarali lianalar bilan arkalarni bezatishda, ko‘pqavatli binolarni manzarali gullovchi lianalar bilan bezatishda ko‘chatlarning xorijiy davlatdan import evaziga keltirib, chetga valyutani chiqib ketishini oldini olish maqsadida manzarali gullovchi liana turlaridan “Xitoy Glitsiniyasi – Wisteria Sinensis turining O‘zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyatlari va Termiz shahar hamda tumanlarida bioekologiyasini to‘liq yoritib berishda, turlarning ko‘paytirish texnologiyasini o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot o‘tkazish joyi va sharoiti. Toshkent davlat agrar universiteti “Axborot-maslahat markazi (extension center)” DUK tajriba xo‘jaligi va Dala tajribalari Surxondaryo davlat O‘rmon xo‘jaligi Kattaqum o‘rmon bo‘limi Sabzipoya uchastkasida amalga oshiriladi. Tadqiqot o‘tkazilgan hududning iqlim sharoitlariga tavsif berish uchun O‘zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya Markazi ma‘lumotlaridan foydalaniladi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat agrar universiteti O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasining “O‘rmonchilik va landshaft dizayn texnologiyalarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

### **Muammoning o‘rganilganlik darajasi**

1962 yildan boshlab Respublikamizning yettita shahri – Andijon, Angren, Olmaliq, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona va Urganchda o‘simlikshunoslik xo‘jaliklari tashkil topdi. Bu xo‘jaliklarning yer maydoni 592 gektar edi. Ko‘kalamzorlashtirishni ilmiy asoslangan holda yo‘lga qo‘yish uchun O‘rmonchilik ilmiy tadqiqot instituti negizida 2005 yilda Respublika manzarali bog‘dorchilik va o‘rmon xo‘jaligi ilmiy–ishlab chiqarish markazi tashkil qilindi [3].

Ko‘kalamzorlashtirishni hozirgi kunda eng ommalashgan yo‘nalishi bo‘lgan Vertikal ko‘kalamzorlashtirishda manzarali gullovchi lianalarni vegetativ ko‘paytirishni ilmiy asoslashga bag‘ishlangan Magistrlik dissertatsiya ishim ustida olib boradigan tadqiqotlarimizda shu mavzuning tarixi, hozirgi kundagi rivojlanish istiqbollari bag‘ishlangan ko‘plab nazariy va amaliy adabiyotlar, qonun va qarorlar o‘rganiladi [13].

Asosan Kitobda vertikal ko‘kalamzorlashtirishning turli xil kompozitsion texnikalari yoritilgan, batafsil dekorativ va agrobiologik xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘simliklarning kengaytirilgan assortimenti berilgan, o‘simliklarning turlari, boshqa o‘simlik guruhleri (gulli o‘simliklar, yillik manzarali lianalar) bilan manzarali

lianalardan 50 ga yaqin kompozitsiyalar tasvirlangan. Har bir kompozitsiyada birmabir o‘simlik turlari va kombinatsiyalarining o‘ziga xos badiiy qiymati ta’kidlanadi, uning eng katta dekorativligi davri ko‘rsatiladi va turli xil narsalarni loyihalashda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Kitob Ukraina ilmiy tadqiqotlari, vertikal ko‘kalamzorlashtirish sohasida mahalliy va xorijiy amaliyotning so‘nggi yutuqlarini keng umumlashtirilib, Ukraina, Rossiya, Latviya, Estoniya shaharlaridagi turar-joy binolari, jamoat binolari va boshqa hududlarini o‘simliklari bilan obodonlashtirishning eng yaxshi namunalari asosida ishlab chiqilgan. Shaharlarni vertikal ko‘kalamzorlashtirish haqida so‘z boradi [5].

O‘zbek tilida nashr ettirilgan kitobda ko‘kalamzorlashtirishning vertikal ko‘kalamzorlashtirish sohasi haqida juda qisqa ma’lumot berilgan.

Vertikal ko‘kalamzorlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari atrof muhitning ekologik muhitiga katta ijobiy ta’sir qiluvchi omildir va shu nuqtai-nazardan Respublikamiz va Jahon ekologiya muammolariga bag‘ishlangan bir nechta darslik va qo‘llanmalar bilan tanishib chiqdim.

Bannikov A.G., Vakulin A.A., Rustamov L.K. “Основи экологии и охрана окружающей среды” kitobida Vertikal ko‘kalamzorlashtirishning ekologiyaga ijobiy ta’sirlarini aytib o‘tgan [4].

“Ekologiya asoslari va tabiatdan foydalanish” kitobida ko‘kalamzorlashtirishning nechog‘lik tabiatga kerak ekanligi haqida keltirilgan [16].

Park kompozitsiyasi texnikasi va landshaft san’ati nazariyasini ishlab chiqish, hududni volumetrik-fazoviy tashkil etish va obodonlashtirish obyektlarini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Plantsiyalarni shakllantirish, tarixiy bog‘larni rekonstruksiya qilish va tiklash uslubiyati tavsiflangan. Ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalar umumlashtirildi. Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish yo‘nalishi talabalari uchun lianalar haqida keltirib o‘tilgan [6]. Belyayeva E. ning “Модные тенденции и озеленение” kitobida Vertikal ko‘kalamzorlashtirish uchun zamonaviy turdagi o‘simlik va gul turlarini ta’riflab o‘tgan [14].

Rossiya va xorijiy ishlab chiqaruvchilarning so‘nggi dizaynlari va tizimlaridan foydalangan holda tobora ko‘proq amalga oshirilayotgan zamonaviy shaharlarning vertikal bog‘dorchilik tarixi, usullari va umumiy prinsiplari ko‘rib chiqiladi. Yashil devorlarni yaratishda yangi texnologiyalarni qo‘llash asoslandi. Ikki tubdan farq qiluvchi texnologiyalarni taqqoslash va tahlil qilish amalga oshirildi. Estetik, ekologik va ratsionalizatsiya xarakteri masalalari muhokama qilinadi [7].

Ushbu kitobda, kerakli maslahatlar chuqur ko'rsatilgan, ammo respublikamiz iqlimidan kelib chiqqan holda vertikal ko'kalamzorlashtirish bo'yicha aniq va kerakli tavsiyalar hamda tanlangan o'simliklar yo'q. Vertikal ko'kalamzorlashtirish mavzusi bo'yicha tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatdiki, vertikal ko'kalamzorlashtirish ishlari bo'yicha kerakli ilmiy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, shaharlar ekomuhiti uchun eng maqbul o'simliklarni tanlash va ulardan kerakli kompozitsiyalar yaratish dolzarb muammo sifatida o'rganilishi lozim [12].

Maqola vertikal ko'kalamzorlashtirishga bag'ishlangan — zamonaviy landshaft dizaynining eng mashhur turlaridan biri. Vertikal ko'kalamzorlashtirish turlari va undan foydalanish shartlariga alohida e'tibor beriladi. Ushbu turdagi ko'kalamzorlashtirish afzalliklari va kamchiliklari aniqlanadi. Vertikal ko'kalamzorlashtirishning inson hayoti va ekologiyasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. [8]. Zamonaviy vertikal ko'kalamzorlashtirishda "Vertikal" joylashgan yoki yerdan balandlikda joylashgan obyektlar uchun ishlatiladigan o'simlik turlarining keng assortimenti qo'llaniladi: jamoat va turar-joy binolari, garajlar va yopiq avtoturargohlarning tomlari va devorlarini vertikal ko'kalamzorlashtirish, binolarning terassalari, balkonlar va lojikalar va boshqalar. Vertikal ko'kalamzorlashtirishning yuqoridagi barcha turlarini o'z ichiga oladi. Bu erda dunyodagi yangiliklarning qisqacha sharhi, binolarning tomlari va devorlarini ko'kalamzorlashtirish bo'yicha yutuqlarga urg'u berilgan [15].

Vertikal ko'kalamzorlashtirish samarali landshaft dizayni usullaridan biridir. U lianalar, daraxtlar va butalar yordamida amalga oshiriladi, sizga maksimal yashil rang berishga imkon beradi, massa, yashil muhit tasavvurini yaratadi, devorlarning bir qismini ko'zdan yashiradi, binolarning jabhalarini bezatadi, ularning go'zalligini ta'kidlab, noyob va unutilmas ko'rinishni yaratadi. Bu istirohat bog'larda, parklarda va yopiq bog'larda maxsus atmosfera yaratilishiga hissa qo'shadi [9].

Ushbu Kasablanka, Marokko, ancha aholi yashaydigan kvartalida 5 ta osmono'par binoni vertikal ko'kalamzorlashtirishgani haqida keltirib o'tgan. Maqolada vertikal ko'kalamzorlashtirish haqida shunday tasavvurlar keltirilgan: rivojlanishining barcha bosqichlarida inson atrofidagi dunyo bilan chambarchas bog'liq. Ammo Sanoatning jadal rivojlanishi jamiyat paydo bo'lganidan beri odamlarning tabiatga aralashuvi kuchaygani, sanoatning chegaralari kengaygan va endi odamlar uchun global tahdidga aylanishi haqida so'z boradi. Eng keng tarqalgan va ahamiyatlisi atrof-muhitning kimyoviy ifloslanishi. Atmosferada karbonat angidrid gazini to'planishi davom etmoqda. Shaharlarning ekologik muammolarini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash joizki, transport va sanoat korxonalarini aholi yashash joylarida haddan

tashqari ko‘p qurilgani shahar atrof muhitiga katta zarar berishi, katta shaharlarda atmosferada 10 baravar ko‘p aerozollar va 25 baravar ko‘p gazlar mavjudligini hisobiga shaharda ko‘kalamzorlashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi keltirib o‘tilgan [10].

Zamonaviy megapolislar zamonida inson salomatligini saqlash va yaxshilash muammosi alohida o‘rin tutadi. Rivojlanib borayotgan shaharlar, ularni zarur ekologik yaxshilashga qaramay, tabiatni o‘zgartirib yubormoqda. Odamlar ta‘sir ko‘rsatadigan yer maydonlarining estetik xususiyatlari yo‘qolib, zavod fabrikalar va zich qurilgan binolar tobora ko‘payib borishi shahar hududidagi tabiatni o‘zgarishiga olib kelmoqda. Zamonaviy shaharda yashil maydonlarning yetarli emasligi ekologik muammo bo‘lib, unda oz miqdordagi ko‘kalamzorlashtirilgan yashil maydon mahalliy mikroiklim va ekologiyaning umumiy darajada yaxshilay olmayotganligi haqida so‘z boradi. Shu nuqtai nazardan, inson hayoti uchun yanada qulay va ekologik sharoitlarni yaxshilash uchun shahar hududlarini vertikal ko‘kalamzorlashtirishda manzarali gullovchi lianalardan foydalanishni loyihalash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish dolzarbligi keltirib o‘tilgan [11].

### **Xitoy Glitsiniyasi – Wisteria Sinensis o‘simligini ko‘paytirishda 2024-yil I chorak (yanvar, fevral, mart oylari) davomida bajarilgan ishlar**

Yanvar, fevral, mart oylarida mavzu bo‘yicha dunyo mamlakatlarida va O‘zbekiston iqlim sharoitida o‘sayotgan manzarali gullovchi lianalardan Xitoy Glitsiniyasi turining turli viloyatlarda va turli iqlim sharoitlarida o‘sayotganligi aniqlandi va o‘rganilmoqda.

Surxondaryo davlat O‘rmon xo‘jaligi Kattaqum o‘rmon bo‘limi Sabzipoya uchastkasida Manzarali gullovchi lianalarning qalamchalaridan va urug‘idan ko‘paytirib, tajriba olib borish uchun ekishga joy tayyorlandi. (1-rasm)



1-rasm



Surxondaryo davlat O‘rmon xo‘jaligi Kattaqum o‘rmon bo‘limi Sabzipoya hududida tayyorlangan yer uchastkasiga ekish uchun manzarali gullovchi lianalardan Xitoy Glitsiniyasidan qalamcha olishda Andijon viloyati Andijon Shahridan mahalliy aholi xonadonidan qalamcha olindi va tajriba maydoniga ekildi (2-rasm).



2-rasm. Andijon Viloyati Andijon shahridagi aholi xonadonida mavjud ona o‘simlikdan qalamcha olish jarayoni.

Tajribalar Suv ya’ni nazorat varianti, Oddiy qumda 1 oy stratifikatsiya qilingan varianti, Indolil-3 moy kislotasi varianti, Soil Root stimulyatorlarida amalga oshirildi.

(3-rasm)





3-rasm. Tajriba variantlari va ekish jarayoni.

Manzarali gullovchi Xitoy Glitsiniyasi assortimentiga kiritilgan turlarni manzaraviylik xususiyatlarini baholash N.I.Shtonda (2013) “Оценка декоративности биоморфы кустарник” metodikasi asosida oʻtkazildi. Ushbu metodikaga binoan manzaraviyligi 73 ball bilan baholanib, yuqori manzarali liana deb baholandi (1-jadval).

1-jadval

Manzarali gullovchi Xitoy Glitsiniyasining manzaraviylik xususiyatlarini baholash shkalasi

№	Butalarning manzaraviylik koʻrsatkichlari	Maksimal ball
1	Balandligi	6
2	Shox-shabbasining shakli	4
3	Shox-shabbasining zichligi	6
4	Novdalari rangi	3
5	Barglarining mavsumiy rangi	4
6	Gullash manzarasi	20
7	Gullash davomiyligi	10
8	Meva rangi va oʻlchami	10
9	Butada mevasining uzoq saqlanishi	4

10	Bargi to'kilmasdan saqlanish davri	5
11	Butaning manzaraviyligini saqlanish davri	5
	Jami:	77

## 2-Jadval

Xitoy Glitsiniyasidan olingan qalamchalarni soni va tajriba variantlari

№	Tajriba o'simligining nomi	Jami qalamchalar soni	Variantlar, qaytariqlar, qalamchalar soni
1	Xitoy Glitsiniyasi (Wisteria Sinensis)	1200 dona	1. Oddiy suvda – 3 marotaba qaytariqda 100 donadan = 300 dona 2. Qumda stratifikatsiya – 3 marotaba qaytariqda 100 donadan = 300 dona 3. Indolil – 3 moy kislotasi – 3 marotaba qaytariqda 100 donadan = 300 dona 4. Soil Root ildiz o'stiruvchi stimulyator – 3 marotaba qaytariqda 100 donadan = 300 dona

Xulosa qilib aytganda, Respublikamizning shahar va parklarini ko'kalamzorlashtirishda Xitoy Glitsiniyasining istiqbolli o'simliklar qatoridan o'rin olishi uchun tajribalarimni davom ettirib, yaxshi natija olish uchun ko'paytirish texnologiyasini takomillashtirgan xolda maqsadga etishishni maqsad qilganman. Xitoy Glitsiniyasini ko'paytirishda qalamchalarini olishda Surxondaryoda ona daraxti mavjud bo'lmaganligi sababli qiyinchiliklarga duch keldik. Bunda men Andijon viloyati Andijon shahardan Ona daraxtidan qalamcha olishga qaror qildim. Bunda tabiat injiqliklari, kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashish biroz qiyinchilik keltirib chiqaradi.

O'zbekiston shaharlarini ko'kalamzorlashtirishda Xitoy Glitsiniyasi, Tekoma, Yaponiya Shilvisi istiqbolli o'simlik hisoblanadi. Tekoma (Naychagul) – Campsis Radicans (Seem), Xitoy Glitsiniyasi, Yapon Shilvisini bu manzarali shakllari Respublikamizning hamma hududlarida ko'chatlarini yetishtirishda qalamchalaridan,

urug'laridan ko'paytirish texnologiyasini ish chiqilgandan so'ng tavsiyanomalar ishlab chiqiladi. Ushbu o'simlik ko'kalamzorlashtirishda foydalanishni keng yo'lga qo'yish iqtisodiy jihatdan samarali, qolaversa atrof muhitni xamda yurtimiz go'shalarini chiroyiga yanada chiroy qo'shishga sharoit yaratadi. O'zbekistonning keskin kantenental iqlimiga bardoshli o'simlik hisoblanadi.

Hozirgi kunda Toshkent, Andijon, Samarqand shaharlarida yaxshi o'sib rivojlanmoqda. Xitoy Glitsiniyasining manzaraviylik xususiyati bo'yicha yuqori baholanadi va uslub mezoniga muvofiq ko'kalamzorlashtirish ishlari istiqbolli bo'lgan I guruhga kiritish mumkin. Yuqori manzarali turlarga baholanganligi bois ushbu lianani landshaft dizayinida qo'llashga tafsiya etish o'rinli deb o'ylayman.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2017-yil 11-sentabrdagi PQ-3262-sonli "Avtomobil yo'llarining arxitektura-landshaft konstruksiyasi va obodonlashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
3. Alekseyeva A. S., Tishkevich A. V. Инновационные методы, применяемые при вертикальном озеленении городских пространств //Новые технологии и проблемы технических наук. – 2015. – S. 73-76.
4. Bannikov A.G., Vakulin A.A., Rustamov L.K. "Основи экологии и охрана окружающей среды " Moskva : Kolos, 1996. — 303 s
5. Bragina V.I., Belova Z.P., Sidorenko V.M. "Вертикальное озеленение зданий и сооружений" Kiyev, 1980 – 5s
6. Gabibova YE. N. Использование лиан в вертикальном озеленении населенных пунктов ростовской области в условиях нижнего Дона //Вестник Донского государственного аграрного университета. 2019. – №. 1-1. – S. 61-64.
7. Dmitriy Dmitriyevich Gosse, Yuriy Aleksandrovich Kukudjanov Современные агротехнологии выращивания декоративных растений в вертикальных конструкциях . – 52 – 62 s.
8. Dyachenko Y. V., Shutka A. V. Вертикальное озеленение экстерера и интерера //Научный вестник Воронежского государственного архитектурно-строительного университета. Seriya: Student i nauka. – 2015. – №. 8. – S. 81-86.

9. Yeroxova O. S. Ассортимент древесных и травянистых лиан для использования в вертикальном озеленении города великий Новгород //landshaftnaya arxitetura, stroitelstvo i obrabotka drevesini. – 2018. – S. 106-110.
10. Zokirov Q.Z., Jamolxonov H.A Botanikadan ruscha-o‘zbekcha ensiklopedik lug‘at.
11. Kayimov A.K., Turok Dj. Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish. -T.: «Fanvatexnologiya», 2012. 124 bet.
12. Chernyayeva YE.V., Suxanova M. V. Основы ландшафтного дизайна Fiton, 2015.
13. Berdiyev E., Turgunov M., Gulamxodjayeva Sh. Vertikal ko‘kalamzorlashtirish. – Toshkent, 2018.
14. Belyayeva E. Modniye tendensii v ozelenenii [Tekst] / E. Belyayeva// Landshaftniy dizayn. — 2004. — S.21
15. Baxarev V. V. Vertikalnoye ozeleneniye: perspektivi ispolzovaniya traditsionnix i innovasionnix texnologiy v usloviyax gorodskoy aglomeratsii. – 2014.
1. Tursunov X.T. “Ekologiya asoslari va tabiatdan foydalanish” — T: «O‘qituvchi», 1997.

## ABDULLA QAHHOR IJODINI INTERFAOL METODLARDA O‘QITISH

*Matyakubova Xosiyat Erkaboyevna – Toshkent shahar Yakkasaroy tumani  
48- maktabning oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Qahhor ijodini interfaol metodlar yordamida o‘qitishning samaradorligi haqida so‘z yuritiladi. Interfaol yondashuv yordamida talabalarda yozuvchining asarlariga bo‘lgan qiziqishni oshirish, adabiy tahlil qilish malakasini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish yo‘llari ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Abdulla Qahhor, interfaol metodlar, o‘qitish texnologiyalari, adabiyot, ijodiy fikrlash.

*Matyakubova Khosiyat Erkaboyevna – Higher Category Teacher of Native Language and Literature at School No. 48, Yakkasaroy District, Tashkent City*

### TEACHING ABDULLA QAHHOR’S WORK USING INTERACTIVE METHODS

**Abstract:** This article discusses the effectiveness of teaching Abdulla Qahhor’s work using interactive methods. Using an interactive approach, it reveals ways to increase students’ interest in the writer’s works, develop their literary analysis skills, and form creative thinking skills.

**Keywords:** Abdulla Qahhor, interactive methods, teaching technologies, literature, creative thinking.

*Матьякубова Хосият Еркабоевна - Яккасарайский район города Ташкента  
48- школьный учитель высшего класса родного языка и литературы.*

### ИНТЕРАКТИВНОЕ ТВОРЕНИЕ АБДУЛЛЫ КАХХОРА ОБУЧЕНИЕ МЕТОДАМИ

**Аннотация:** В данной статье говорится об эффективности обучения творчеству Абдуллы Каххора с использованием интерактивных методов. С помощью интерактивного подхода раскрываются пути повышения интереса учащихся к творчеству писателя, развития навыков литературного анализа, формирования умений творческого мышления.

**Ключевые слова:** Абдулла Каххор, интерактивные методы, технологии обучения, литература, творческое мышление.

**Kirish.** Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan yozuvchi bo‘lib, uning asarlari hayotiyliigi, mazmuniy chuqurligi va tahliliy yondashuvi bilan ajralib turadi. Bugungi ta‘lim jarayonida adabiyot darslarini qiziqarli va samarali o‘tkazish maqsadida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada Qahhor ijodini talabalarga yetkazishda foydalaniladigan interfaol metodlarning imkoniyatlari muhokama qilinadi.

**Asosiy qism.** Abdulla Qahhorning asarlari “Sarob”, “Qo‘shchinor chiroqlari”, “O‘tgan kunlar” singari hayotiy voqealarga asoslangan asarlaridan iborat. Bu asarlar orqali talabalarda adabiy-estetik didni shakllantirish, ma‘naviy qiyofani boyitish imkoniyati mavjud. Shuningdek, Qahhorning psixologik tahlil va konfliktlarni yoritishdagi mahorati talabalarni chuqur tahliliy fikrlashga undaydi. Interfaol metodlar ta‘limda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi faol muloqotni ta‘minlaydi. Quyidagi interfaol metodlar Qahhor ijodini o‘qitishda samarali hisoblanadi:

- **Klaster metodi:** Talabalar guruhlariga bo‘linib, Qahhor asarlaridagi asosiy mavzular va xarakterlarni tahlil qilishadi.
- **Debatlar:** Yozuvchi asarlaridagi axloqiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha munozaralar tashkil qilinadi.
- **ROL (Rollarni bajarish):** Talabalar asardagi obrazlar rollarini ijro etib, ularning ichki dunyosini anglashga harakat qilishadi.
- **Grafik organayzerlar:** Tushuncha xaritalari orqali asarlarning voqeaiviy tahlili amalga oshiriladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda Abdulla Qahhorning “Sarob” asari asosida quyidagi faoliyatlar tashkil etilishi mumkin:

1. **Matnli ishlash:**

- Talabalar matndan asosiy iqtiboslarni topadilar va ularning mazmunini sharhlaydilar.
- Muallif g‘oyalarini zamonaviy hayot bilan bog‘laydilar.

2. **Rolli o‘yinlar:**

- “Sarob” asaridagi asosiy qahramonlar orasidagi muhim muloqotlarni sahnalashtirish.

3. **Munozara:**

- Talabalarga “Sarob asaridagi asosiy konflikt zamonaviy hayotda ham dolzarbmi?” mavzusida fikr yuritish uchun imkoniyat yaratish.

4. **Ijodiy ishlar:**

➤ Talabalar Qahhor uslubida kichik hikoyalar yozib, ularni guruhda muhokama qilishadi.

Interfaol yondashuv orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Talabalarda Qahhor ijodiga bo‘lgan qiziqish ortadi.
- Mustaqil tahlil qilish va ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.
- Guruhda ishlash, fikr almashish va o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish malakasi shakllanadi.

**Xulosa.** Abdulla Qahhor ijodini interfaol metodlar yordamida o‘qitish ta‘lim jarayonini samarali va mazmunli qilishga xizmat qiladi. Talabalarda nafaqat adabiy tahlil qilish malakasi, balki ijodiy fikrlash va muloqot qobiliyatlari ham rivojlanadi. Zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash orqali adabiyot darslarini yanada boyitish va qiziqarli qilish mumkin.

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:***

1. Abdulla Qahhor. “Sarob”. T.: O‘zbekiston nashriyoti, 1965.
2. Karimov, B. “O‘zbek adabiyotida innovatsion texnologiyalar”. T.: Adabiyot nashriyoti, 2020.
3. Jalilov, H. “Adabiy tahlil usullari”. T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2018.
4. Qodirova, Z. “Interfaol metodlar va ularning ta‘limdagi ahamiyati”. T.: Ma’naviyat nashriyoti, 2021.
5. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/1109/1052>.
6. <https://yuz.uz/uz/news/biz-abdulla-qahhorning-faqatgina-ijodini-bilar-ekanmiz>.



## **AUTIZM SPEKTRI BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR BILAN KORREKSION ISHLARDA SENSOR INTEGRATSIYA METODLARI**

*Nizomiy nomidagi TDPU*

*Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti Oligofrenopedagogika yo'nalishi  
I kurs magistri Qòchqorova Nodira*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola autizm spektri buzilishiga ega bolalar bilan korreksion ishlarda sensor integratsiya metodlarining ahamiyatini ko'rsatadi. Avvalo, sensor integratsiyaning asosiy tushunchalari va tamoyillari haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Keyin, sensor integratsiya metodlarining ASBga ega bolalar uchun qanday foydali ekanligi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari va ijtimoiy interaksiya rivojlantirishda qanday rol o'ynashi tahlil etiladi. Maqolada sensor integratsiya metodlarining turli xil qo'llash usullari va ijobiy natijalari misollar bilan ko'rsatiladi

### **Методы сенсорной интеграции в коррекционной работе с детьми с расстройствами аутистического спектра.**

**Аннотация:** В данной статье показано значение методов сенсорной интеграции в коррекционной работе с детьми с расстройствами аутистического спектра. Сначала дается краткий обзор основных концепций и принципов интеграции датчиков. Затем будет проанализировано, чем методы сенсорной интеграции полезны для детей с РАС, какую роль они играют в развитии навыков саморегуляции и социального взаимодействия. В статье на примерах показаны различные способы применения и положительные результаты методов интеграции датчиков.

### **Sensory integration methods in correctional work with children with autism spectrum disorders**

**Annotatsion:** This article demonstrates the importance of sensory integration techniques in correctional work with children with autism spectrum disorders. First, a brief overview of the basic concepts and principles of sensor integration is provided. Then, it will be analyzed how sensory integration techniques are useful for children with ASD, how they play a role in the development of self-regulation skills and social interaction. The article shows various application methods and positive results of sensor integration methods with examples.

*Kalit so'zlar: Autizm spektri buzilishi, sensor integratsiya, korreksion ishlar, sezgi tizimi, ta'lim, rivojlanish*

Autizm spektri buzilishi (ASB) – bu rivojlanish jarayonida paydo bo'ladigan va insonning ijtimoiy, kommunikativ, va xulq-atvor jihatida turli darajadagi o'zgarishlarni qo'lga kiritishga olib keladigan nevro-rivojlanish buzilishidir. Sensor integratsiya metodlari ASBga ega bolalar bilan korreksion ishlarda muhim ahamiyatga ega, chunki ular bolalarning sezgi tizimlarini yaxshilash va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Ushbu maqolada sensor integratsiya metodlarining ASBga ega bolalarning tanqidiy qabuli va rivojlanishini optimallashtirishdagi roli tahlil qilinadi.

Autizm miyaning rivojlanishi yoki ishlashidagi buzilish natijasida yuzaga keladi. Odatda autizmning dastlabki belgilari 2 yoshli bolalarda namoyon bo'ladi. Ko'pgina hollarda, bu kasallik tug'ma hisoblanadi. Tibbiy tasnif autizmni asab tizimining kasalliklari deb tasniflaydi, ammo autizm kasallik emas, balki rivojlanishdagi alohida holat degan fikr mavjud. Kasallik o'g'il bolalarda qizlarga qaraganda 4 baravar ko'proq aniqlanadi.

Bolalarda autizmning sabablari

Bolalarda autizmning sabablari hali ham noma'lum, ammo kasallikning rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin bo'lgan gipotezalar ro'yxati ishlab chiqilgan va klinik jihatdan tasdiqlangan:

genetik moyillik;

homiladorlik paytida homila mutatsiyalari;

ba'zi vaktsinalarning oqibatlarini (gipoteza inkor etib bo'lmaydigan tasdiqni topmagan); rivojlanish paytida homilaning va hayotning birinchi oylarida bolaning miyasi shikastlanishi ;

axborot blokadasini tufayli idrokning buzilishi;

miya yarim sharlarining o'zaro ta'sirining buzilishi;

tanadagi serotoninning noto'g'ri almashinuvi;

xomilaning rivojlanish bosqichida xromosomada izdan chiqish holatlari;

ona qornida rivojlanish bosqichida yuzaga keladigan tug'ma nuqsonlar.

Autizmning deyarli barcha holatlarida kasallik bolalik davrida aniqlanadi. Vaqt o'tishi bilan kasallikning namoyon bo'lishi va alomatlarini o'zgarmaydi va rivojlanmaydi, ular shunchaki autizmga chalingan bola balog'at yoshiga etganida sezila boshlaydi.

Sensor integratsiya metodlari va ularning asoslari.

Sensor integratsiya – bu insonning muhitdan kelayotgan sezgi axborotlarini qabul qilishi, ularni o'zaro bog'lab, samarali harakat va javoblarni shakllantirishi jarayoni. Sensor integratsiya modulozi ASBga ega bolalarda ko'plab qiyinchiliklarni hal qilishda yordam beradi. Masalan:

- Birlashtirish: His-tuyg'ular orasida bog'lanish o'rnatilishi.
- O'z-o'zini boshqarish: O'z holatini va muhitni anglash.
- Ijtimoiy interaktsiya: Kishilar orasida muloqot va hamkorlik qilish.

Sensor integratsiya metodlarining ta'siri.

Sensor integratsiya metodlari orqali ASBga ega bolalar bilan ishlaganda, muayyan maqsadlarga erishish mumkin:

- Sezgi qobiliyatlarini yaxshilash: Bolaning sezgi sezgilarini aniqlab, ularni rivojlantirish.
- Xulq-atvorni boshqarish: Davomiy stress va tashvish holatlarini kamaytirish.
- Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish: Bolalarning ijtimoiy munosabatlarini yaxshilash va muloqot qilish qobiliyatlarini kengaytirish.

Korreksion ishlar jarayoni

Korreksion ishlar jarayonida sensor integratsiya metodlarini qo'llanganda quyidagi usullar ishlatiladi:

- Sensor o'yinlari: Sezgi organlarini faollashtirish uchun mo'ljallangan o'yinlar.
- Ta'lim muhitining optimallashtirilishi: Maxsus muhitlarda o'qitish jarayonini to'g'rilash.
- Maxsus mashg'ulotlar va terapiyalar: Fizioterapiya va boshqa terapevtik yondashuvlar.

Misollar

Bu metodlar yordamida amalga oshirilgan muvaffaqiyatli misollar ko'plab ijtimoiy va ta'lim muassasalarida amalga oshirilmoqda. Organizational Implementations bo'yicha amaliyotlar, sensor integratsiya metodlarining o'zgarishi va ularning natijalari haqida dalillar keltiradi.

Sensor integratsiya metodlari autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar jarayonida muhim va ajralmas qism bo'lib xizmat qiladi. Ular bolalarning rivojlanishini va ijtimoiy interaktsiyalarini yaxshilashga yordam berishi mumkin. Ushbu yaxshilanish bolalarning hayot sifatini oshirishga, muhitga moslashuvchanligini kuchaytirishga, va o'z o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Sensor integratsiya metodlarini o'z ichiga olgan korreksion ishlarda pedagoglar, psixologlar va terapevtlar birgalikda harakat qilib, bolalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Ayvazova, K. M. (2018). Sensor integratsiya metodlari va ularning ta'siri. O'zbekiston Ta'limi.
2. Kuryakova, E. A. (2019). Autizm spektri buzilishi va sensor integratsiya. Defektologiya jurnali.
3. Parshukova, A. Y. (2020). Korreksion ishlarda zamonaviy yondashuvlar. Psixologik tadqiqotlar.
4. Vygotsky, L. S. (1978). O'z-o'zini boshqarish va ta'lim. O'zbekiston Davlat Noshirligi.
5. Buss, G. (2021). Sensory Integration and Autism: A Comprehensive Guide. Journal of Autism and Developmental Disorders.

## XALQARO IQTISODIYOT, RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI VA MUAMMOLAR

**E.Jo‘rayev**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Shahrizabz filiali “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar”  
kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro iqtisodiyotning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari, muammolari va istiqbollari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiyot, rivojlanish, xalqaro, integratsiya, tovar, ayriboshlash, hamkorlik, elektron tijorat.

Iqtisodiyot — bu insoniyat taraqqiyotining eng muhim asoslaridan biri bo‘lib, u mamlakatlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xususan, global iqtisodiyotning bugungi kundagi dinamikasi va rivojlanish yo‘nalishlari davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, texnologik taraqqiyot va resurslardan samarali foydalanish kabi omillarga bog‘liq.

So‘nggi yillarda xalqaro iqtisodiyotda bir qator muhim tendensiyalar kuzatilmoqda:

### 1. Globalizatsiya va savdo liberallasuvi

Globalizatsiya jarayoni dunyo mamlakatlarining iqtisodiy integratsiyasini kuchaytirdi. Xalqaro savdo hajmi oshib, davlatlar o‘rtasidagi tovar va xizmatlar almashinuvi yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, Jahon Savdo Tashkiloti (JST) kabi tashkilotlar savdo to‘siqlarini kamaytirish orqali xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda.

### 2. Texnologik taraqqiyot va raqamli iqtisodiyot

Texnologik innovatsiyalar xalqaro iqtisodiyotda yangi segmentlar paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat va sun‘iy intellekt texnologiyalari xalqaro savdoni tezlashtirib, iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini yaratmoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida raqamli iqtisodiyotning roli sezilarli darajada oshdi.

### 3. Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot

Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va ekologik barqarorlik xalqaro iqtisodiyotning asosiy masalalaridan biriga aylandi. Mamlakatlar ko‘proq yashil energiya manbalariga o‘tishni maqsad qilmoqda. Xalqaro darajada uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan bitimlar iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylandi.

Xalqaro iqtisodiyotdagi muammolar

Xalqaro iqtisodiy tizimda kuzatilayotgan rivojlanish bilan bir qatorda qator muammolar ham mavjud:

1. Notekis rivojlanish

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy farq hanuz yuqori darajada qolmoqda. Bu holat xalqaro savdodagi tengsizlik, texnologik imkoniyatlarning cheklanganligi va moliyaviy resurslarning taqsimlanishidagi nomutanosiblik bilan izohlanadi.

2. Savdo urushlari va proteksionizm

So'nggi yillarda ayrim davlatlar proteksionistik siyosatga qaytmoqda. Bu xalqaro savdoda to'siqlar paydo bo'lishiga va iqtisodiyotning sekinlashishiga olib kelmoqda. Masalan, AQSh va Xitoy o'rtasidagi savdo urushlari global iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

3. Iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar

Iqlim o'zgarishi xalqaro iqtisodiyotga katta tahdid solmoqda. Ekstremal iqlim sharoitlari qishloq xo'jaligi, transport va energetika kabi sektorlarni zaiflashtirmoqda. Bu esa global oziq-ovqat xavfsizligi va energiya ta'minotida muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xalqaro iqtisodiyotning istiqbollari

Kelajakda xalqaro iqtisodiyotda quyidagi yo'nalishlar rivojlanishi kutilmoqda:

1. Raqamli iqtisodiyotni kengaytirish: Elektron tijorat, blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalari iqtisodiy jarayonlarni tezlashtiradi.

2. Barqaror rivojlanishga o'tish: Yashil energiya va ekologik innovatsiyalar xalqaro iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylanadi.

3. Integratsion jarayonlarni kuchaytirish: Yangi mintaqaviy iqtisodiy ittifoqlar va savdo bitimlari xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantiradi.

Bugungi kunga kelib globallashuv jarayonlari nafaqat xalqaro iqtisodiyot tuzilishini o'zgartiribgina qolmay, balki har bir davlat ichidagi mintaqalarning rivojlanishiga ham katta ta'sir o'tkazmoqda. Bizga ma'lumki, bir davlat boshqa bir davlat bilan mahsulot ayirboshlashni yo'lga qo'ymasdan turib, iqtisodiy faoliyatini yuritishi juda qiyin. Mahsulot ishlab chiqarishning amalga oshishi va rivojlanishi xalqaro savdo munosabatlarini vujudga keltiradi. Mahsulot ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etib borishi bevosita ishlab chiqarish hajmini kengayishiga hamda boshqa tomondan mamlakatlararo xo'jalik aloqalarining yanada rivojlanishiga imkon yaratadi.

**Xulosa.** Xalqaro iqtisodiyotning bugungi holati va istiqbollari zamonaviy dunyoning muhim qirralarini aks ettiradi. Texnologik taraqqiyot, globalizatsiya va ekologik barqarorlik kabi mavzular xalqaro iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlarini

belgilab bermoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal qilish uchun mamlakatlararo hamkorlik va yangi innovatsion yondashuvlar zarur. Faqatgina samarali iqtisodiy siyosat va kuchli integratsion jarayonlar orqali dunyo iqtisodiyoti barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. G.M.Shadieva, T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov, Z.S.Artikov, L.U.Maxmudov, A.P.Xazratov, D.S.Musinov. Mintaqaviy iqtisodiyot darslik / Samarqand -2023
2. Региональная экономика: Методические указания / Л.Ф. Мирсяянова. – Казань: 2008
3. Boltabaev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva SH.J.,G’oypnazarov K.,Samadov A.N., Xodjaev R.S. Kichik biznes va tadbirkorlik. - T.: 2011 y.
4. M.S. Mirsaidov. “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar”. O’quv qo’llanma-T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006 y.
5. G.G’.Nazarova, Z.M.Iminov, X.X.Xalilov, O.B.Hamidov “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar”. Darslik - Toshkent- 2011.
6. Гуломова, Н. Ф. (2022). Возможности Цифровой Трансформации Транспортной Отрасли В Республике Узбекистан. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 188-192.
7. Гуломова, Н. Ф. (2022). Проблемы, Возникающие В Процессе Перехода К Цифровой Экономике В Узбекистане: Рост Угроз Кибербезопасности. Как цитировать: Цифровые технологии и право: сборник научных трудов I Международной научно-практической конференции (г. Казань, 23 сентября 2022 г.)/под ред. ИР Бегишева, ЕА Громовой, МВ Залоило, ИА Филиповой, АА Шутовой. В 6 т. Т. 2.–Казань: Изд-во «Познание» Казанского инновационного университета, 2022.–556 с. EDN: JSIXFM. DOI: [http://dx. doi. org/10.21202/978-5-8399-0769-0\\_2022\\_2\\_556](http://dx.doi.org/10.21202/978-5-8399-0769-0_2022_2_556), 84.
8. Gulomova, N. (2019). Развитие Цифровой Экономики В Республике Узбекистан: Вызовы И Решения. Theoretical & Applied Science, (9), 151-156.
9. Бабкина, А. В. Устойчивым Развитием Экономических Систем В Цифровую Эпоху.
10. Nematdjonovna, M. G., & Qizi, G. N. F. (2023). Big Data Texnologiyasining Funktsiyalari Va Vazifalari. Science and innovation, 2(Special Issue 3), 352-357.
11. Gulomova, N. (2023). Comparative Analysis Of The Export Potential Of The Republic Of Uzbekistan Within The Framework Of The EAEU. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 20, 17-22.

12. Nematdjonovna, M. G., & Qizi, G. N. F. (2023). Buyumlar Interneti (Iot) Texnologiyalarining Shakllanishi. Science and innovation, 2(Special Issue 3), 37-41.
13. Gulomova, N. (2023). Assessment And Comparative Analysis Of The Investment Potential Of The Republic Of Belarus And The Republic Of Uzbekistan Within The EAEU. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 1(2), 1-9.



## THE ROLE OF MODERN MANAGEMENT IN THE FIELD OF ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN AND THE PROBLEMS OF ITS IMPLEMENTATION.

**Ashraf Qurbonaliyevich Abdualimov**

Author: Denau Entrepreneurship and Pedagogy Institute of Digital Economy

Teacher tel: +998909804900

E-mail: [lioneev0006@mail.ru](mailto:lioneev0006@mail.ru)

**Omonkeldiev Jamshid Umid ugli**

Author: Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy "Economics" 1I-21

group student **Tel:** [+ 998951886558](tel:+998951886558)

**E-mail:** [jomonkeldiyev@gmail.com](mailto:jomonkeldiyev@gmail.com)

**Annotation:** This article describes the current state of management in Uzbekistan, the problems and prospects for the introduction of modern management in business.

**Keywords:** Economics, management, entrepreneurship, traditional management, modern management, economics, management, profit, integrated approach, consensus, prosperity, Japanese experience.

It is not difficult to imagine that in a market economy there are thousands of enterprises based on different ownership. The organization of the management of enterprises to one degree or another depends on the management skills of the head of the enterprise. His ability is measured by the extent to which he has mastered the knowledge in the field of management. In this context, the word management has become one of the words that has entered our lives in connection with the market economy.

Management is a word with a wide range of meanings, with many different meanings, and management is the management of the world. The market environment itself assesses the success of the organization, regulation, coordination, control of the production process and the degree to which the set goals are achieved. As the scale of production expands and the amount of resources in supply increases, so do the tasks of management.

Of course, today's modern enterprises are abandoning traditional management and prioritizing modern management. Because these management systems are drastically different from each other.

Traditional management is an approach to project management that suits many industries and conditions. This approach uses traditional tools and methods to manage and solve problems. This control system includes the following functions:

- Planning
- Establishment
- Management

Modern management is a unique function, a unique tool for organizations to produce results. Fulfilling this super task requires an expansion of the manager's area of responsibility, which includes all the factors that affect the organization's operations and its results:

Today, the functions of modern management include:

- Planning;
- to establish;
- motivation;
- management;
- coordination;

Modern management is a strategic approach at all levels of management, where the human factor is used as the main factor. The following management principles are outlined:

one hundred percent personal responsibility of the manager; advanced communication at all levels;

continuous training of staff and managers;

the atmosphere in the enterprise helps employees to develop their skills to the maximum;

each employee consciously contributes to the overall outcome;

rejection of authoritarian leadership style in favor of leadership;

advanced communication skills to communicate with customers;

business ethics;

openness and trust in people;

knowledge of the basics of management and their use;

clearly imagine the path of the enterprise;

desire to constantly improve themselves and improve the quality of their work;


k complex approach.

It is not easy to put all of these principles into practice, but many modern businesses are striving for innovation. Many developed countries now use modern management. Each also has its own management system. They use unique methods to approach

